

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqqan boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 25-mart chorshanba №12(9597)

Matnshunoslikning quvonch va tashvishlari

4, 5, 14-betlar

Adabiyotga bag'ishlangan son

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



 Oliy ta'limga o'qishga qabul qilinayotgan aksariyat abituriyentlar o'quv markazlari mehnati natijasidir. Men buni ichidan kuzatib turgan shaxs sifatida aytayapman. To'g'ri, maktablarda ham o'z fanidan guruhlar ochib, bolalarni darsdan tashqari paytlari oliy ta'limga tayyorlab, natija ko'rsatayotgan o'qituvchilar ham bor, lekin o'nta maktabdan bitta yoki ikkitasida chiqadi bundaylar. Sabab nima? Albatta, boshqaruv. Tuman bo'limiga oxirgi 10–12 yilda layoqatsiz, buxgalteriyadan boshqasini bilmaydiganlar kelib qoldi. Ular tomonidan tayinlangan direktorlar ham “direktor jamg'armasi”, “moddiy yordam jamg'armasi” uchun ishlab yurishibdi. Ta'lim sifati, davomat, tarbiya ular uchun oxirgi masala.

Sodiq XUDOYQULOV

 Maktabdagi davomatning pastligiga ijtimoiy sabablarning ham ta'siri bor. Kambag'allik, oiladagi iqtisodiy taqchillik, ota-onaning uzoqda ishlashi, farzand mehnatidan foydalanish, bolaga nisbatan oiladagi zo'ravonlik, notinch oila, oiladagi ziddiyat... Xullas, sabablar bisyor.

Gulchehra ASHUROVA



“Kitobxon oila”

Kitobxon oilalar ko'paysin!

Odatda taksida ko'p yurmayman. Bir tomondan ha deganda taksiga chiqishni cho'ntak ko'tarmaydi. Ikkinchi tomondan esa taksichilarning sersavolligi bezdirgan. Jimgina aytilgan manzilga eltib qo'yadigan kirakashni hech ko'rmadim hayotimda.

– Ishgami, uka?
– Ha, ishga.
– Nima ish qilasiz?
– Gazetada ishlayman.
– Ec-ec, gazeta o'qiydigan odam qoldimi hozir?

– Obunamiz kam-u, lekin o'qishadi, aka.
– Zo'rlab obuna qildirsalaring kerak-da. Bo'lmasa, nega olishsin pul sarflab? Hozir hamma narsa telefonda bor-ku. Kitob, gazeta varaqlab o'tiradigan odamlarni hech tushunmayman-da...

Anglaganingizdek, suhbatning davomi to manzilga yetguncha gazeta va kitobning ahamiyati haqida tortishuv bilan o'tdi. Qani endi bu odamga biror narsani tushuntirib bo'lsa. Ertalabdan kayfiyatim buzilgani qoldi.

Hech kim o'qimaydi emish, texnologiya zamonida kitob o'qishning kimga keragi bormish! Yaxshiyam siz borsiz, aziz mush-tariy. Shahardadir, balki qishloqda, ehtimol, biror maktab sinfonasida qo'lingizdagi gazetani varaqlayapsiz... Bir-birimizni hech tanimay siz bilan g'oyibona hamsuhbat bo'lyap-miz. Ikkinchi sahifadasiz, nimalar yozibdi bu mahmadona yozg'ich, deya qiziqyapsiz...

Gazetamizni qo'lingizga olishingiz bilan quvonib ketdim. Allaqaysi taksichiga kimdir gazeta o'qiyotganini isbotlash uchun emas, shunchaki yaxshi suhbatdosh topilgani uchun. Keling, siz bilan biroz gurunglashaylik.

Bir hisobga taksichidan o'pkalamasak ham bo'ladi. Telefon, internet-u ijtimoiy tarmoqlar kitobxonlikni biroz susaytirgani rost. Kaftdekkin bir matoh hayotimizga shu darajada kirib keldiki, qisqa vaqtda tanamizning bir parchasiga aylandi-qoldi. Biror kunimizni usiz tasavvur qilish qiyin. Ko'pimiz ishda, yo'lda, hatto oila davrasida ham telefondan boshini ko'tarolmaydigan bo'lib qoldik. Biror narsa haqida o'tirib o'ylashga, fikrlashga-da vaqtimiz yo'q. Ko'rsatk ich barmoqning birgina harakati bilan qisqa videolar o'zanida turfa mavzular ichida ko'ramiz o'zimizni. Unisidan bunisiga, bunisidan unisiga o'tkazaveramiz, o'tkazaveramiz... Go'yo telefon bizga nimalarnidir o'rgatayotgandek bo'ladi, ammo kimdir kelib, “Nima tomosha qilding, nima o'rganding?” desa, aytadigan biror javobimiz yo'q. Bu qisqa videolar bizni yuzaki o'ylash va qisqalikka o'rgatib qo'ydi. 4-5 daqiqadan ko'p hech narsaga diqqat qaratolmaydigan holga keldik. Mutolaa esa sabr va fikrlashni talab qiladigan jarayon.

Bu bilan zamonaviy axborot texnologiyalarini butkul qoralash niyatim yo'q, albat-ta. Ularning maqtashga arziqli jihatlari ham ko'p. Ammo axborot uchun qulay degani, kitob-u gazeta-jurnallardan voz kechish kerak degani emas-ku.

To'g'ri aytasiz, nima qilsak qilaylik, qayga borsak boraylik, najot baribir kitobda va mutolaadadir. Bu o'tmish, hozir va kelajak uchun ham o'zgarmas haqiqat. Rivojlanishni istagan davlat va jamiyat, eng avvalo, ishni kitobxonlikka e'tibordan boshlashi lozim.

Darhaqiqat, hozir mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan ishlar tahsinga sazovor. Kitobxonlikni targ'ib qilish borasida katta islohotlar amalga oshiril-

moqda, avval huvillab yotgan kitob do'konlari gavjumlashdi, ularda dunyo adabiyotining durdonalaridan tortib, turli sohalarga oid ilmiy adabiyotlar soni va salmog'i ortib boryapti. Vatandoshlarni kitobga jalb qilish maqsadida turli kitobxonlik tanlovlari tashkil etilmoqda, “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila” kabi tanlovlarning qamrovi kengayib, ishtirokchilar soni ham yil sayin ko'paymoqda.

Odamni quvontiradigan jihati, faqatgina kitob o'qib yaxshigina daromad qilish imkoni ham bor. Yaxshi kitobxonlarga hatto mashina sovg'a qilinyapti.

Tashkil etilganiga hali ko'p bo'lmagan “Yosh kitobxon oila” tanlovi bugungi kunga qadar 250 mingdan ortiq yosh oilani qamrab olishga ulgurdi. Ularning soni va salmog'i yil sayin ortib bormoqda. Jumladan, 2021-yili 10 ming, 2022-yili 56 ming, 2024-yili 94 mingdan ortiq, 2025-yil mavsumida 96 ming oila tanlovda ishtirok etish istagini bildirishgan.

Yaqinda Namanganda bo'lib o'tgan “Yosh kitobxon oila” tanlovining 2025-yilgi Respublika bosqichiga tuman va viloyat bosqichlaridagi saralashlardan o'tgan eng ilg'or, katta tayyorgarlikka ega 14 kitobxon oila yetib keldi. Qizg'in va murosasiz bellashuv yakunlariga ko'ra, 3-o'rin Andijon viloyatidan Mahammadjonovlar oilasiga, 2-o'rin Toshkent shahridan Sattorovlar oilasiga nasib etdi. Birinchi o'rinni esa Toshkent viloyatidan ishtirok etgan Eshonqulovlar oilasi qo'lga kiritdi. Tanlovning Respublika bosqichida qatnashgan barcha ishtirokchi oilalarga 10 million so'mdan mukofot puli va kitoblar to'plami hadya etildi. 3-o'rin g'oliblari 30 million so'm, 2-o'rin egalari esa 50 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi. 1-o'rinni qo'lga kiritgan Eshonqulovlar oilasi esa Prezident sovg'asi – “BYD” elektromobilini qo'lga kiritdi.

Hurmatli mushtariy, yozmoqchi bo'lgan maqolamning qahramoni ham, aynan, “Yosh kitobxon oila” tanlovining bu yilgi g'olibi – Eshonqulovlar oilasi edi. Keling, ular bilan tanishaylik. Keyin yana suhbatimizni davom ettiramiz.

– 1995-yili Zomin tumanida o'qituvchilar oilasida tug'ilganman, – deydi Javohir Eshonqulov. Keyinchalik Bekobodga ko'chib kelganmiz. Otam – Bahodir Eshonqulov uzoq yillar tumandagi 5-maktabda ingliz tilidan dars bergan. Onam – Guljahon Eshonqulova ham shu maktabda rus tili fani

o'qituvchisi edi. Ziyoli o'qituvchilar oilasi bo'lganimiz uchun ham esimni taniganimdan buyon kitob mening doimiy hamrohim bo'ldi. Qo'limizga tushgan kitobni akalarim bilan talashib-tortishib o'qirdik. Bolalikda meni sehlagan kitoblar dunyosidan haligacha ayrilol-ganim yo'q. 14–15 yoshlarga kelganda o'qigan kitoblarimdan ilhomlanib o'zim ham qog'oz qoralay boshladim. Turli adabiy to'garaklarga qatnadim. “Bekobod ovozi” va “Bekobod ish-chisi” gazetalarida irod namunalirim bosilib chiqdi. Keyin ish, ro'zg'or tashvishlari bilan biroz ijoddan uzoqlashgan bo'lsam-da, hali hamon she'r va hikoyalar mashq qilib turaman.

Insonda kitobga muhabbat uyg'onishida oilaning roli, albatta, juda muhim. Uyida kichikroq bo'lsa ham kitob javoni bo'lmagan oilada kitobxon farzandlarning voyaga yetishi mushkul. Javohir bilan suhbat jarayonida uning kitobga muhabbati va ijodga qiziqishida kitobxon oila muhitidan tashqari yana bir ulkan omil borligidan xabardor bo'ldim. Xalqimizda qon tortadi, degan gap bor. Biror layoqat yo iste'dodning avlodlar orasida o'z tajallisini topishiga ishoniladi. Javohirning ham kitob va ijodga moyilligi bejiz emas ekan. Surishtirib ko'rsak, Eshonqulovlar oilasi ona tomondan ulug' yozuvchimiz – Pirimqul Qodirovga qarindosh chiqdi.

Adibimiz “Ilinj” hikoyasida: “Mening ikki opam urush davrida Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lgan erlariga sadoqat saqlab, boshqa turmush qurishmadi. Biri ikki o'g'ilni, biri uch farzandni otasiz o'stirib, odam qilishdi. Bunday onalar har bir qishloqda, har bir shaharda bor. Men shu hikoya orqali ularning hammasiga cheksiz ehtiromimni izhor qilmoqchiman”, deb yozadi. Yozuvchimizning o'sha hikoyada tilga olgan ikki opasidan biri Toshxol Qodirovadir. Toshxol ayaning og'li Abduxalil Eshonqulov ayni paytda Javohirning bobosi bo'ladi.

– Pirimqul Qodirov – bobomning tog'asi. U kishi Tojikistonning Kengqo'l qishlog'ida tug'ilgan. Biz Kengqo'lga deyarli har yili bo-rib turamiz. Qarindoshlar ko'p. Hali ham aloqalar uzilmagan. Pirimqul Qodirovdek ulug' bir yozuvchi bilan qondosh ekanimdan juda faxrlanamam! – deydi Javohir Eshonqulov.

Javohir va Svetlana juftligini birlashtirgan ham kitob va adabiyot desak, mubolag'a bo'lmaydi. Kitoblar va adabiyotga muhabbat ikkisini-da 2018-yili Chirchiq davlat pedagogika universitetining O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishiga yetaklab kelgan. Qiziqishlari, qarashlari bir-biriga uyqash bo'lgan juftlik bu ta'lim targohida tanishib, oila qurishga qaror qilishadi.

Javohir talabalikning ilk yillaridanoq o'zlashtirgan bilim va tajribalarini oliy ta'lim olish istagida yurgan yoshlar bilan bo'lishishni istaydi. Darsdan bo'sh vaqtlari o'quvchilarga ona tili va adabiyot fanidan repetitorlik qiladi. Bu jarayonda Svetlana ham unga ko'maklashadi. Keyinchalik Javohir bir muddat oziq-ovqat do'konini ochib, o'zini tijoratda sinab ko'rishga qaror qiladi.

– Ayolim bilan birga “Yosh kitobxon oila” tanlovining har mavsumini yaqindan kuzatib borardik, – deydi u.

– Tanlovda g'olib bo'lgan oilalarni ko'rib havasimiz kelardi. Unda ishtirok etish istagini qalbimizga tugib qo'ygandik. Ikkinchi ham kitoblarni yaxshi ko'rganimiz uchun tanlovning bu yilgi mavsumida ishtirok etishga qaror qildik. Do'konidagi ishimni ham yig'ishtirib, tanlovga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshladik. Tayyorgarlik jarayonida uzoq yillik repetitorlik tajribasi, uni-

versitetda ikkimizning ham aynan o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida tahsil olganimiz qo'l keldi. Ro'yxatdagi kitoblarni deyarli o'qib chiqqan edik. Tanlovda ishtirok etish uchun ularni qayta takrorlab chiqdik. Har bir asar haqidagi tadqiqotlar, ilmiy maqolalarni ham o'qib, yanada yaxshiroq tushunishga harakat qildik.

Mehnat va intilish o'z samarasini bermay qo'ymadi. Eshonqulovlar oilasi tuman va viloyat bosqichida yuqori o'rinni egallab, Respublika bosqichida qatnashish imkonini qo'lga kiritishdi. Bu bosqichdagi taassurotlari haqida Javohir shunday deydi:

– Respublika bosqichi juda hayajonli va murosasiz kechdi. Bu bosqichga yurtimizning 97 000 ga yaqin bilimli va kitobxon oilalari orasidan 14 ta eng kuchli juftlik yetib keldi. Asar sharhi shartida ikkinchi o'rinda edik. Insho shartidan keyin esa birinchi o'ringa chiqdik. Tanlovning tezkor savol-javob qismida maksimal ball bilan mutlaq g'olib bo'ldik va Prezident sovrinini qo'lga kiritdik. U onda qalbimizdan kechgan quvonch va hayajonni tasvirlash qiyin!

Aslida, tanlovda ishtirok etgan hamma oila g'olib, barcha ishtirokchilar birinchi o'ringa loyiq edi. Kitobni tanlaganlar hech qachon yengilmaydi!

Tanlovdagi g'alabadan keyin ham mutolaani bir zaylda davom ettiryapmiz. Kitobga bir karra mehr qo'ygan odamning undan ajralishi qiyin. Mo'jazzina oilaviy kutubxonamiz boyishda davom etmoqda. Quvonarli jihati, javonlarimizga 3 yoshli jaiji farzandimizning ham kitoblari qo'shilyapti. Unga olti oyligidan turli bolalar kitoblari sovg'a qilishni boshlaganmiz. Bugungacha kitoblari soni ellikdan oshdi. Ba'zilar “hali go'dak bo'lsa, kitobning nima keragi bor unga?”, deyishardi. Mayli, hozir tushunmas, lekin ko'zi o'rganadi, ko'nikma hosil bo'ladi, kitobga mehr qo'yadi, derdik. Hozir farzandimiz ertak eshitishni, rasmlı kitobchalarini varaqlashni juda yaxshi ko'radi. Bir qancha she'r yodlagan. Ba'zan o'zi ham ertak to'qib bizga aytib beradi.

Ayolim ham, men ham “Yosh kitobxon oila” tanlovda ishtirok etganimizdan juda ham xursandmiz. Bu tanlov kitobga bo'lgan muhabbatimizni yanada olovlantirdi. O'zimiz kabi kitobxon oilalar bilan fikr almashish va do'stlashish imkoniga ega bo'ldik. Biz kabi kitob o'qishni yaxshi ko'radigan yosh oilalarni ushbu tanlovda ishtirok etishlarini tavsiya qilib qolamiz!

Hurmatli mushtariy, siz bilan suhbat, Eshonqulovlar oilasi bilan tanishuv, menga juda boshqacha ta'sir qildi. Ertalabki men kim edim-u hozir maqola adog'iga kelgan men kim! Tongda kayfiyatni taksichi buzdi, undan tashqari ham so'nggi paytlari axborot makonini ishg'ol qilgan qora xabarlardan yurak bezovta bo'lib turgan edi. Jahonda sodir bo'layotgan jarayonlarni ko'rib, adolatsizlik, yomonlik hukmron bo'lgan dunyoda yashayapmizmi, degan fikr miyamdan chiqmayotgandi.

Yer yuzida ekologik vaziyat kun sayin yomonlashmoqda. Kuch kimda bo'lsa, shuning aytgani aytgan, degani degan zamon keldi hozir. Dunyoning turli burchaklarida yangidan yangi urush o'choqlari paydo bo'lyapti, minglab, millionlab begunoh odamlar o'lyapti, vatanlaridan ayrilyapti...

Insoniyat o'laroq ezgulik hukmron bo'lgan dunyoda yashashni xohlasak, albatta kitob, san'at va adabiyotning etagidan mahkam tutish kerakligi, rivojlangan davlat va adolatli jamiyatni kitobxon insonlargina qura olishi mumkinligiga bugungi suhbatdan so'ng yana bir bor amin bo'ldim. Rahmat sizga kitobxon oila, rahmat sizga aziz mushtariy!

Humoyun QUVONDIQOV,
“Ma'rifat” muxbiri



Nuqtayi nazar

YANGI METODOLOGIYAGA EHTIYOJ

Hamma gap metodologik ongda. Agar jamiyatning, ayniqsa yosh avlodning metodologik ongi u qadar rivojlanmagan bo'lsa, u na hozirgi davr, na o'tmish, na adabiy hodisa, na muayyan yozuvchining ijodi va shaxsini to'g'ri baholay oladi. U odatda ilmiy tahlilga emas, balki his-tuyg'ular yoki zamonaviy stereotiplarga tayanib baho beradi. Shu sababli, ayrim yoshlar o'tgan adabiy merosga "qayta baho berish" niqobi ostida merosni inkor etish, hatto yerga urib tashlash yo'lini tanlamogda. Abdulla Qahhor ijodiga nisbatan aytilgan "u bo'lmag'ur yozuvchi" yoki "sotqin" kabi ta'riflar ham aynan metodologik ong yetishmasligining natijasidir. Chunki metodologik ong shakllanmagan joyda to'g'ri baho berish mumkin emas.

Metodologik ong nima o'zi? Qisqacha qilib aytganda, metodologik ong – bu inson(yoki jamiyat)ning hodisalar, shaxslar, biror adib asarlari va tarixni shaxsiy his-tuyg'u yoki tasodifiy mezonlar bilan emas, balki aniq ilmiy, tarixiy, madaniy tushunchalar asosida baholay olish. Yanada aniqroq aytganda, metodologik ong "Baholashdan oldin qanday usul, asos bilan baholayapman?" degan savolni qo'ya olish salohiyati.

Qayta baholash muayyan zamonda o'tmishga yangicha ko'z bilan qarash hodisasi sifatida tabiiy jarayondir, ammo u hissiy inkor shaklida emas, balki aniq tarixiy, ijtimoiy va estetik mezonlar asosida amalga oshirilgandagina ilmiy qiymat kasb etadi.

Aslida o'tmish, merosni qayta baholash, hatto inkor qilish tarixda ko'p bor uchraydi. Ilk sovet davrida ham o'tmishga nisbatan keskin inkor pozitsiyasi ustuvor bo'lgan. Yangi tuzum o'zini mutlaq "yangilik" sifatida taqdim etish uchun undan oldingi ma'naviy-madaniy merosni "eski", "qoloq", "reaksion" deb belgilashga kirishgan edi. Bu qayta baholash jarayoni mafkuraviy ehtiyojga tayangan inkor edi. Natijada ko'plab tarixiy hamda adabiy hodisalar va siymolar yangi mafkura nuqtayi nazaridan sun'iy ravishda qayta talqin qilindi. Hatto, Pushkin va Navoiy merosining ahamiyati anglanmagan davrlar kechdi. Bu narsa sotsialistik mafkura-ga tayanib o'tmish va merosni beryoqlama anglashga olib keldi. Sotsialistik realizm bora-bora vulgar(yasama, soxta) sotsiologizmga aylana bordi. Tabiiyki, bu barcha ijtimoiy sohada, jumladan adabiyot va san'atda yuz bergan edi.

Eng muhimi, mustaqillikdan keyin adabiyotda yangi metodologik asoslar yaratish jarayoniga kirishilmadi. Ancha yillar avval domla Naim Karimov bilan suhbatimizda "Sovet metodologiyasi endi yaramaydi, yangi metodlar yaratish davri kelmadimikan?", deya so'raganimda, "Endi bu ishni sizlar, yangi avlod amalga oshiradi", deb javob bergandi.

Mustaqillikdan so'ng esa adabiyotshunoslikda "betaraf ilmiylik" ustuvor bo'lgan edi, natijada metodologiya emas, amaliy metodlar – analiz, sintez, adabiy tahlil kabilar bilan ish ko'rildi. Avvalgi ustozlar familiyalari va ularning ishlari metodologiya funksiyasini o'tadi. Eng asosiysi, faqat(deyarli) amaliy, amaliy-nazariy yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Eski qoliplarni qirib-kesib, yangi voqelikka moslashtirish bilan cheklanib qoldik. Bu holatda adabiy tan-

ra va shunga yarasha metodologik fikrga ehtiyoj tug'ilmoqda. Shu ma'noda, bugungi kunda ilmiy va adabiy jamoatchilik uchun ochiq bahs-munozaralarni boshlash vaqti yetib keldi. Soniyani, bizga qanday mafkura va qanday metodologiya kerak? Nima qilish kerak? Yangi metodologiya yaratish uchun bizning tuzum tayyormi? Yangi metodologiya o'z-o'zidan yaratilmaydi. U yangi davlatning siyosati, ichki ijtimoiy qurilishi va kelajak mafkurasi bilan bog'liq. Albatta, bu keng qamrovli masala.

1. "Biz tayyormizmi?" degan savolga qisqa va to'g'ri javob: to'liq tayyor emas-

miz. Lekin bu fojia emas. Hech bir jamiyat yangi metodologiyaga tayyor holda kirib kelmaydi. U talab, inqiroz va ehtiyoj orqali tug'iladi. Hozirgi keskin bahslar, rad etishlar, "eskilarni" yo'qqa chiqarish, aynan shular to'lg'oqli og'riq bilan tug'ilish jarayonlari. Bugun biz yozyap-mizmi, demak, jarayon boshlanish arafasida.

2. Nima uchun yangi metodologiya "o'z-o'zidan" yaratilmaydi? Chunki metodologiya yakka olimning ishi emas, alohida maqolalar yig'indisi ham emas. U davlat qurilishi, ijtimoiy ong, kelajak haqidagi tasavvur bilan chambarchas

bog'liq. Yangi metodologiya yangi davlat siyosati, ichki ijtimoiy tuzilish va mafkura bilan uyg'un bo'lishi shart.

Jarayon boshlanish arafasida, dedik. O'tgan yili yanvarda metodologiya haqida norasmiy seminar ma'ruza qildim. 2-3 yillik mehnatim samarasi sifatida ikki-uch maqola yozdim-u, chiqarmadim. Ammo ishim tanqiddan boshlangan. Shuni noqulay. Agar asosli bo'lsa tanqiddan cho'chimaslik kerak. Hamma yangi narsalar eskini tanqid(hatto inkor) qilishdan boshlanadi. Biroq mayatnik kafgiri yana joyiga kelgandek, aniq muvozanatga erishiladi.

Bizda adabiyotshunoslik metodologiyasining yaqin o'tmishi – mustaqillikdan so'ng mafkuradan qochildi(sovet tajribasidan qo'rqib) hamda "betaraf ilmiylik" shiori ustuvor bo'ldi. Natijada metodologiya emas, metodchalar qoldi: asarni tahlil, davrni tahlil qilish kabi. Katta nazariy metodologiya yo'qligi katta umumlashma mavzu, masalalar qo'yilmaligiga sabab bo'ldi.

3. Xo'sh, nima qilish kerak(amaliy qadamlar)?

• 1-qadam. Mafkuradan qo'rqmaslik, lekin mafkuraga qul bo'lmasdan metodologik takliflar kiritaverish kerak. Yangi metodologiya mafkurasiz bo'lmaydi, lekin u dogma ham bo'lmasligi kerak. Bu yerda asosiy nuqta: mafkura yo'nalish beradi, metodologiya esa vosita.

• 2-qadam. Milliy tajribaning global

nazariyalar bilan kirishishidan qo'rqmasligimiz kerak. Qolaversa, hozir butun dunyoda ijtimoiy sohalar, xususan, falsafa nazariy jihatdan yangicha yo'nalishga muhtoj bo'lib turibdi. Negaki, bugungi kunda borliqni idrok etish o'zgarishga uchradi.

Bizning yangi metodologiya to'liq G'arbniki yoki faqat "milliylik" shiori ostida qolmasligi kerak. U quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- yangicha talqin(idrok etish madaniyati);
- tarixiy-ijtimoiy tahlil;
- postkolonial qarash(umuman, bu dunyo adabiyotshunosligi tajribasida va hatto bizda ham bor. Garchi aynan shunday deb atamasak-da);

- milliy semantika va obrazlar tizimi(bu tizim mutlaqo yangi, ammo kerak).

- 3-qadam. "Qayta baholash" mezonlarini ochiq belgilab qo'yish. Har bir yangi ijtimoiy davrda bu voqelik yuz beradi, xuddi Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhorni ayrim yoshlar "yangicha" baholamoqchi bo'lganlaridek(darvoqe, Chingiz Aytmatov kabi dunyoga taniqli yozuvchining ham "boshiga tushdi" bu qayta baholash mezon). Demak, bundan qochib qutulib bo'lmaydi. Faqat "har kim baholayvermasligi kerak" deyish bilan ish bitmaydi. Hozir ijtimoiy tarmoqlar zamoni. Savollar aniq qo'yilishi shart: Qaysi mezon bilan? Qaysi davr kontekstida? Qaysi ijtimoiy vazifani bajargan? Metodologiya, avvalo savol berish madaniyati. Soniyani, tahlil, baholash, qayta baholash, asoslash...

- 4-qadam. Ustozlar maktabini tiklash(simvolik bo'lsa ham). Hozir yangi "katta maktab" yo'q. Lekin konseptual maqolalar, metodologik takliflar("mazkur"ga o'xshagan), ochiq intellektual bahslar(boshlanadi, degan umid bor) orqali ramziy maktab yaratish mumkin.

- 5-qadam. Sifatni miqdordan ustun qo'yish. Biz miqdor ko'payib sifatning oshishini ta'minlaydi, deb uzoq kutdik. Biroq bu "ishlamadi". Endi bu, ya'ni sifatga e'tibor juda zarur: dissertatsiya soni emas, metodologik yangilik baholanishi kerak.

4. Eng muhimi, yangi metodologiya buyruq bilan yaratilmaydi, o'z-o'zidan ham tug'ilmaydi. U intellektual javobgarlikni o'z zimmasiga olgan kam sonli olimlar orqali boshlanadi.

Rostini aytam, bu maqola aynan boshlanish nuqtasi.

"Yangi o'zbek adabiyotshunoslik metodologiyasi" uchun 5–7 tamoyildan iborat konsepsiya, masalan, yangi takliflar tug'ilishi tabiiy. Ular muhokama qilinishi shart. Bugungi sharoitda o'rtadagi bo'shliqni katta olimlarning befarqligi emas, bahs-munozaralar orqali to'ldirish vaqti yetib keldi, deb o'ylaymiz.

Umid qilamizki, yangi takliflar tug'ishi muqarrar. Endi asosiy masala – ularni muhokama maydoniga olib chiqishdir. Chunki metodologiya bahs orqali shakllanadi. Shu ma'noda, bugungi kunda ilmiy va adabiy jamoatchilik uchun ochiq bahs-munozaralarni boshlash vaqti yetib keldi.

Gulshan RAHIM,
filologiya fanlari nomzodi





Aks sado



Alisher Navoiy
“Mukammal asarlar to‘plami”(MAT), “To‘la asarlar to‘plami” (TAT) chop etilgani, “O‘zbek adabiyoti xazinasidan” 200 tomligining nashr etilayotganligi matnshunoslikdagi quvonchli hodisalardir. Ayni paytda, ularning sernuqson sifatda yuzaga chiqib qolishi tashvishli holdir.

1980-yillari “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida matnshunoslik sohasida uzoq davom etgan bahs-munozara bo‘lib o‘tgan edi. Hozir, afsuski, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi ham, undagi “Tanqid va adabiyotshunoslik” bo‘limi ham yo‘q. O‘z-o‘zidan, tabiiy ravishda, maydon va minbar yo‘qolgach, matnshunoslik bahsi “Ma‘rifat” gazetasiga ko‘chganganga o‘xshaydi. Gazetaning 2026-yil 11-fevral sonidagi matnshunos olim Vahob Rahmonovning “Akademik ilmdagi rekordlar” maqolasi shundan dalolat beradi. Maqolada e‘tirofga sazovor fikrlar bilan birga, o‘rinsiz iddaolar, chalkash mulohazalar ham bor. Maqoladagi bahs, asosan, Fanlar akademiyasi olimlarining Alisher Navoiy matnshunosligi sohasidagi ishlariga qaratilgan.

Avvalo shuni aytish kerakki, ushbu maqolaning mazmuni o‘tgan 2025-yili ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilingan. Ziyoli ahli, mutaxassis olimlar undagi ma‘lumotlar bilan tanish. Yana shu fikrlarni gazetada e‘lon qilish ortiqcha sa‘y-harakat emasmikan? Masalaning ikkinchi tomoni ham borki, ijtimoiy tarmoqlarda yengil-yelpi, ilmiy asoslantirilmagan maqolalar bemalol e‘lon qilinaveradi. Lekin, aslida, ijtimoiy tarmoqlarda ham, ayniqsa, rasmiy matbuotda dalil va isbotlar, hujjatlar bilan asoslangan maqolalar chop etilishi lozim.

Vahob Rahmonov maqola boshida “rekordlarim” deya maqtangan gaplari ishonarli emas. U yozadi: “1973-yili matnshunoslikdagi birinchi rekordim – Ogahiy asarlari matni yaroqsizligi haqidagi maqolamni(“Sharq yulduzi” 1973-yil 6-sonida e‘lon qilingan “Nashr va mas‘uliyat”) Sharof Rashidov o‘qib, ikki ulug‘ olim – G‘ulom Karimov va dotsent Subutoy Dolimov, nashriyot direktori Hamid G‘ulom, bosh muharrir Tohir Ibrohimov va o‘rinbosari Ibrohim G‘afurovni markazqo‘mga suhbatga chaqirgan. Shu tufayli men 32 yoshli yigitcha Ogahiy “Asarlar”i III jildiga muharrir bo‘lganman”.

Albatta, mumtoz adabiy matnchiligida birinchi marta nashr etilgan Ogahiy 6 tomlik tanlangan asarlari-ning(Muhammadrizo Ogahiy, Tanlangan asarlar, 6 jildlik, nashrga tayyorlovchilar G‘ulom Karimov, Subutoy Dolimov. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1971–1980,

tiraji 25 000 nusxa) dastlabki jildlarida anchagina nuqsonlar bo‘lishi mumkin. Lekin u matnlar yaroqsiz bo‘lmagan. Biz va yana necha avlod tadqiqotchilari, keng kitobxonlar ommasini hamon shu nashrdan foydalanib kelamiz. O‘z davri uchun eng nufuzli nashr hisoblangan bu kitoblar jamlamasi Ogahiy asarlari nashrlari orasida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega. Ogahiy asarlari hanuzgacha bu ko‘lam va miqdorda chop etilgani yo‘q. Masalan, tajribali matnchi olim Sayfiddin Rafiddinov 2023-yili Ogahiy “Ta‘viz ul-oshiqin” devonining yangi, muhtasham nashrini “Adabiyot” nashriyoti orqali amalga oshirdi. Olim yangi nashrni yaratishda qator qo‘lyozma manbalarining qiyosiy tahlili asosida ish tutgan. Lekin mazkur G‘.Karimov va S.Dolimov nashrlariga e‘tibor bermagan. Biz noshirning o‘zi bilan telefonda gaplashib, shu xususdagi iqrorini eshitdik. Oqibatda matn kamchiliklardan xoli bo‘lmagan. Yangi nashrdagi ayrim xatolar oldingi nashrda to‘g‘riligini ko‘rdik. Agar Ogahiy devonining yangi noshiri eski nashrni ham ko‘zdan kechirganida, shubhasiz, matn yanada sifatli chiqqan bo‘lar edi. Shu dalilning o‘zi anglatadiki, G‘.Karimov va S.Dolimov nashrlari, V.Rahmonov mubolag‘a qilganidek, yaroqsiz bo‘lmagan. Zotan, ular o‘z davri adabiyotshunosligining piri murshidlari edilar. 55 yildan beri beminnat xizmat qilib kelayotgan kitoblarni “yaroqsiz” deyish insofdan emas.

Mazkur nashrning mamlakat rahbari ishtirokida Markazqo‘mda muhokama qilinganiga ham ishonish qiyin. Chunki hozir buni tasdiqlaydigan biror hujjat yoki guvoh yo‘q. Ro‘yxatda keltirilgan kishilardan birgina Ibrohim G‘afurov hayot, lekin u bu gaplarni tasdiqlarmikan? Vahob Rahmonov shu voqea ishtirokidagi o‘zini “32 yoshli yigitcha” deb ataydiki, bu ham kamtarlikdan emas. Odatda, 32 yoshdagi olimlar ayni yetuk, kuch-g‘ayratli, mahsuldor pallada bo‘ladi. “Bu voqeadan sal avval eng ulug‘ olimdan hayfsan olganman”, deya marhum professor G‘.Karimovga piching qilinadi. Ha, G‘.Karimov o‘z davrining chindanda “eng ulug‘” olimlaridan biri edi. Bu yil uning 120 yilligi nishonlanadi. Uning minglab shogirdlari ilm-ma‘rifat dargohlarida mehnat qilmoqda. Ammo o‘limiga yarim asrdan oshgan olimni endi malomat qilish olimlikka, odamiylikka to‘g‘ri keladimi? Bularning aytishuvlari ustida turgan guvoh bormi?

V.Rahmonov endi ikkinchi ulug‘ olimning sha’niga, tarixiy xizmatiga malomat yog‘diradi: “Endi ikkinchi rekordim haqida. Ustoz Hamid Sulaymonovga “Xazoyin ul-maoniy” (1959-1960)ning to‘rt kitobi har birida yuzlab nuqsonlar borligini aytib, miosollar ko‘rsatganimda ustoz meni katta mablag‘ bilan siylagan. Shartnoma tuzib, 4 kitobni bosh-oyoq tahrir qilib

berganim uchun Qo‘lyozmalar instituti kassasidan menga 8000 so‘m bergan. O‘shanda yangi “Jiguli” avtomashinasining davlat narxi 7 400 so‘m edi”.

Ey baraka topkur, birinchidan, u paytda hali Qo‘lyozmalar instituti yo‘q edi. Qo‘lyozmalar instituti 1978-yilda tashkil topgan. Ikkinchidan, o‘sha to‘rt kitobning har birida yuzlab nuqsonlar borligini biror joyda bitta-bitta ko‘rsatib bermagansiz va ko‘rsatib bera olmaysiz ham. Uchinchidan, Siz “4 kitobni bosh-oyoq tahrir qilib bergan” Hamid Sulaymonning yangi “Xazoyin ul-maoniy” nashri yo‘q va chiqmagan-ku?! H.Sulaymon “Xazoyin ul-maoniy”ni faqat bir marta nashr ettirgan. Sizning tahrirlaringiz qayoqda qoldi, izi yo‘q-ku? Sizning bu iddaoningizni tasdiqlovchi dalil qani? Mabodo, Siz tahrir qilgan matn qayerdadir saqlangan bo‘lsa, marhamat, ilm ahliga oshkor eting. Agar shu hujjat – Siz tahrir etgan matn bo‘lmasa, H.Sulaymon “Shartnoma tuzib, 4 kitobni bosh-oyoq tahrir qilib berganim uchun Qo‘lyozmalar instituti kassasidan menga 8000 so‘m bergan. O‘shanda yangi “Jiguli” avtomashinasining davlat narxi 7 400 so‘m edi”, degan gapingiz ham ishonarsiz. Bunday yirik moliyaviy oldi-berdi hujjatsiz bo‘lmaydi. Moliyaviy huquq degan tushunchalar bor. Siz aytgan raqam o‘sha davr davlat belgilagan qalam haqi me‘yoriga mos kelarmikan? Darvoqe, o‘sha tarixiy shartnoma bormi? Balki hayotingizga ravnaq bag‘ishlagan bu tabarruk hujjatni asrab-avaylab saqlagandirsiz?

Ammo atoqli matnshunos H.Sulaymon birinchi va bir marta to‘liq chop ettirgan “Xazoyin ul-maoniy” – benazir nashr. U hamon ilmiy qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Uning hamon keyingi nashrlardan afzal tomonlari bor. Nashr tarkibidagi Alisher Navoiyning lirik kulliyotidan tashqari, chuqur ilmiy-tadqiqot saviyasida yozilgan katta formatda 30, hozirgi kichik formatlarda 50 betdan ortiq so‘zboshi va kitobning 4-jildi oxirida berilgan: “Navoiy o‘zbekcha devonlarining redaksiya klassifikatsiyasi”, “Xazoyin ul-maoniy”dagi g‘azal, ruboiy va muammolarning alifbo tartibi”, “Navoiy o‘zbek tilida yaratgan she‘rlarining xronologik davrlarga ajralishi”, “Xazoyin ul-maoniy” she‘rlarining xronologiyasi” nomli 4 ta, har biri kitob sahifalariga mos ravishda qatlab-qatlab joylashtirilgan, yoyganda har biri salkam bir metr keladigan ilmiy jadvallar Navoiy lirik kulliyotining keyingi biror nashrida yo‘q. Bu jadvallarda aks etgan ilmiy-tadqiqotni hozir butun boshli institutlar ham amalga oshirolmayapti. Shu nashrning ishtirokchisi, bugun 95 yoshni qoralayotgan atoqli navoiyshunos olim Yoqubjon Is‘hoqov xotirlashicha, Hamid Sulaymon mazkur nashr tadqiqini amalga oshirish maqsadida 20 dan ortiq yetuk matnshunos olimlarning boshini qovushtirgan. Siz bilar-bilmas

butun boshli bir ilmiy jamoa ustidan malomat yog‘dirayapsiz.

Maqoladagi yana bir iddao quyidagicha: “...O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti navoiyshunoslari meni 50 yildan buyon o‘zlariga raqib sifatida yomon ko‘rishadi. O‘z kitoblarida daroz, falonchi, qitmir chol, g‘alamis deb haqorat ham qilishadi. Ularning alamzadaligi mening keskin maqolalarimga matbuotda javob bera olmagandandir...”. Bu gaplar ilmiy fikrlar emas, balki hasratdir. V.Rahmonov o‘tgan yili 85 yoshga to‘ldi. Olimning tabarruk yoshini qutlab “Ma‘rifat”da “Benazir matnshunos” sarlavhali bir maqtoqli maqola ham bostirdik. Ehtimol, bunday yoshdagi odamning hasratzadalikka berilishini tabiiy hol deb qabul qilish mumkindir. Biroq ko‘ngil hasratlarini ommaviy matbuotda das-turxon qilib yozish o‘rinlimikan? 50 yillik raqobat – bo‘lmagan gap. Men o‘sha Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti mumtoz adabiyot bo‘limida 17 yil (1977–1994) ishlaganman. O‘sha yillar V.Rahmonov ijodi gurkiran yillar hamda Til va adabiyot institutining ham gullab-yashnagan davri edi. U payti Institutda Izzat Sulton, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug‘afurov, Suyima G‘aniyeva, Yoqubjon Is‘hoqov kabi ulkan allomalar ishlardi. Ilmiy jamoa jiddiy fundamental tadqiqotlar yaratish bilan mashg‘ul edi. Bu ulug‘vor allomalarning V.Rahmonov bilan raqobat qilishga zarra-cha mayli ham, vaqti ham bo‘lmagan. V.Rahmonov ham Akademiya bilan raqobat qiladigan kuch-qudratga ega emas edi. U ahyon-ahyonda matbuotda bir maqola e‘lon qilib qo‘yardi, xolos. Uning Akademiyadagi 5 tomlik “O‘zbek adabiyoti tarixi”, 2 tomlik “Adabiyot nazariyasi”, 20 tomlik Navoiyning “Mukammal asarlar to‘plami” va boshqa tadqiqotlarga jalb etilmagani, ya‘ni hamkorlikka chaqirilmagani tabiiy hol. Chunki V.Rahmonov qilingan ishlarning faqat kamchiliklarini fosh etuvchi negativ maqolalari bilan tanilgan. U shu usul bilan ham kifoyalanmas, mumtoz adabiyotning yangi kitoblari nuqsonli sahifalarini qip-qizil rang bilan bo‘yab yuqori idoralarga olib chiqib allakimlarga ko‘rsatar va ularning ishonchiga kirib, nashriyot yoki tegishli idoralarga telefon qildirib, kitoblarning boshqa jildlariga sherik muharrir, mas‘ul muharrir bo‘lib olar edi. Shu yo‘l bilan katta miqdorda qalam haqi ishlab olardi. Jamoatchilik buni bilar-di. Xo‘sh, bunday mutaxassisni kim ham xushlardi? Bo‘lmasa, Akademiya yuqorida eslangan tadqiqotlarda mamlakat va xorijdagi 50 dan ortiq mutaxassislar bilan hamkorlik qilgan. Bu borada Navoiyning:

Agar el qilmadi himoyat sanga,
O‘zingdin kerakdur

shikoyat sanga –

O'qituvchiga yordam



8-sinf uchun mo'ljallangan o'quv dasturi va "Adabiyot" darsligidan Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi o'rin olishi g'oyat quvonchli hodisadir (Mirzayeva Z., Qodirova N., Mamiraliyev Q. Adabiyot. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2025. 142–182-betlar). Mazkur darslikda dramaning birinchi, ikkinchi va beshinchi pardasidan parchalar berilgan. Drama matnini o'qitish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar tafakkuriga ta'sir etish maqsadida o'ziga xos "aqliy hujum" uyushtirishi maqsadga muvofiq. Aqliy hujum quyidagi savollar asosida uyushtiriladi:

1. Drama ekspozitsiyasida Jaloliddinning valiahdlikdan mahrum qilinishi tarixiy haqiqatga mos keldimi? Siz bu xususda qanday tarixiy ma'lumotlarni bilasiz?

2. Haqiqatan ham, Jaloliddin saman otida Amudaryodan sakrab o'tganmi? 8-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligida bu voqea qanday tasvirlangan?

3. Jaloliddinning onasi o'zini Amudaryoga tashlaganmi yoki u sultonning buyrug'iga binoan Sind daryosiga cho'ktirilganmi?

Aqliy hujum uyushtirish maqsadida qayd etilgan ushbu savollar nafaqat maktab o'qituvchilari va o'quvchilari, balki xalqimiz ong-u shuurida uzoq yillardan buyon mustahkam o'rnatilgan kelayotgan tarixiy ma'lumotlarni o'zgartirishga yordam beradi. Tarixiy haqiqat va badiiy to'qimamasalasi haqida tasavvurga ega bo'lmagan o'quvchi drama matnini o'zlashtirish jarayonida undagi ma'lumotlarni aynan qabul qilishi va tafakkuriga singdirib olishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Bunday vaziyatda drama matnini o'zlashtirish jarayoniga o'qituvchining aralashuvi eng maqbul innovatsion yondashuvdir. Bundan o'zgacha yondashuv o'quvchini chalg'itadi va u tarixiy haqiqatni badiiylik nuqtayi nazaridan o'zgartirish mumkinligini tushunmay qoladi. Shuning uchun adabiyot fani o'qituvchisi dramani o'qitishdan avval 8-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligidagi ma'lumotlarni o'qishi va tarixiy ma'lumotlardan dars jarayonida o'rinli va unumli foydalanishi tavsiya etiladi (Zamonov A., Istamova N. va B. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023. 36–40-betlar).

Drama sujetidagi tugun Muhammad Xorazmshoh va Jaloliddin o'rtasida Chingiz istilosiga qarshi qanday harbiy taktika tanlash borasida yuzaga qalqib chiqadi. Asosiy konflikt shu ziddiyat natijasida shakllanadi va Jaloliddinning valiahdlikdan mahrum etilishi bilan yakunlanadi. Akademik Naim Karimov ma'lumotlariga ko'ra, Maqsud Shayxzoda o'rta asr muarrixlari Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy va Atomalik Juvayniy qalamiga mansub tarixiy kitoblarni sinchiklab o'rganagan. Tarixiy manbalarda Muhammad Xorazmshoh hayotining so'nggi kunlariga qadar valiahd deb tayinlanmaganligi qayd etiladi. Xususan, an-Nasaviy shunday yozadi: "Uning (Qutbiddinning) ikki akadan – Jaloliddin Manguberdi va Rukniddin G'ursantjiydan oldin taxt vorisi qilib belgilanishi sultonning mavqeyi yuksak onasi Turkon xotun amriga bo'ysungani bilan izohlanadi. Negaki, Qutbiddinning onasi, uning boshqa bolalarining onalaridan farqli o'laroq, Turkon xotunga aloqador bo'lgan bayot urug'idan edi" (Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, 2018, 46-bet). Boshqa tarixiy manbalarda ham Qutbiddin O'zloqshoh avvaldanoq Xorazmshohlar saltanati valiahdi ekanligi aniq-tiniq eslatilgan. Jumladan, turk olimi Meryam Gurbuz bu xususda shunday mulohaza bildiradi: "Haqiqatan ham, Sulton Alouddin Muhammad oldin o'g'illaridan O'zloqshohni valiahd qilib tayinlagan edi, keyinchalik esa bu qarorni o'zgartirdi. Buning ustiga O'zloqshoh sultonning eng kichik o'g'li edi.

JALOLIDDIN MANGUBERDI SHAXSI



Ko'rilganidek, eng katta shahzodaning valiahd bo'lishiga doir bironta ham qoida yo'q edi" [Gurbuz, 2022, 59-bet). Xalqimiz ong-u shuurida "Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar davlatining valiahdi bo'lgan, otasi Muhammad Xorazmshoh bilan tortishuvdan so'ng va Turkon xotunning talabiga ko'ra, valiahdlikdan mahrum etilgan" qabilidagi ma'lumot mahkam o'rnatilgan uchun ham biz ayni jihatga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Yana bir bor takrorlaymiz: tarixiy haqiqatga ko'ra, Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar davlatining valiahdi bo'lmagan. Avval boshdanoq valiahd Qutbiddin O'zloqshoh bo'lgani va unga Xorazm, Xuroson, Mozandaranni boshqarish topshirilganligi haqida Nasaviy guvohlik beradi (Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, 2018, 45-bet).

Maqsud Shayxzoda ayni shu tarixiy haqiqatga o'zgacha yondashadi va tarixiy haqiqatni inversiyalash orqali sujet tugunini shakllantiradi. Ayni chog'da dramatizmni yana ham kuchaytirish uchun yangi valiahd Qutbiddin O'zloqshohni murg'ak go'dak ko'rinishida tasvirlaydi. Qutbiddin O'zloqshoh valiahdlik tojini kiyganda o'smir yoshida bo'lganligi va unga bir necha viloyatni boshqarish topshirilganligi tarixan ma'lum. Tomoshabin va kitobxon ko'z o'ngida qo'rqmas va qaysar, mohir sarkarda va qahramon Jaloliddin Manguberdi valiahdlik tojidan ayriladi, toj-taxt taqdiri esa murg'ak go'dak Qutbiddin O'zloqshohga bog'lab qo'yiladi. Shu tariqa tarixiy xronotop koordinata tekisligining vertikal chizig'ida ulkanlik va bahodirlikka nisbatan murg'aklik va zaiflik qarshilantiriladi. Inversiyaga uchragan tarixiy haqiqat kitobxon va tomoshabinga ataylabdan shunday qarama-qarshilikda ko'rsatiladi. Ikkinchi jahon urushi davrida dramaning spektakl variantini ko'rgan tomoshabin tragik kolliziyalarni qabul qilishi qiyin edi. Shuning uchun ham dramaturg tomoshabin adolat va adolatsizlikni tez fahmlaydigan, oson ajratadigan variantni tanlaydi.

Dramaning Parvon jangidan so'ng ro'y beradigan voqealarini yozish jarayonida Maqsud Shayxzoda uchun jiddiy muammo tug'iladi. Voqealarni bir makon va bir zamon uyg'unligida ifodalash – xronotopdagi muvozanatni saqlash maqsadida muallif favqulodda va ko'zda tutilmagan tarixiy inversiyaga qo'l uradi. Avvalroq Sind daryosi bo'yidagi jang Jaloliddin taqdiriga mash'um ta'sir ko'rsatganini eslagandik. Mazkur tarixiy voqea, ya'ni Jaloliddinning Chingizxondan yengilib, o'z oti bilan daryoga sakrashi voqeasi hozirgi Pokiston hududi bilan bog'liq. Jaloliddin ot bilan sakragan daryoning boshlanishi pokistonliklar tomonidan Sind, hindistonliklar tomonidan Hind deb ataladi. Maqsud Shayxzoda Sind daryosi bo'yidagi jang tafsilotlaridan

“Hamma narsa odamlar

Mutolaa



Mixail Bulgakovning "Usta va Margarita" romani hayotning eng murakkab va dolzarb masalalarini aks ettiruvchi siyosiy-falsafiy asardir. Yozuvchi har bir obraz vositasida kitobxonni o'ylashga majbur qiladi.

E'tiborimni boshqalaridan ko'proq tortgan qahramon – Ieshua obrazi bo'ldi. Muallif ushbu obraz orqali dono, xotirjam va o'z qadriyatlariga sodiq inson portretini yaratadi. Ieshua ilohiy adolat va saxovat ramzi bo'lib, har qanday razillikka qaramay odamlarda yaxshilikni ko'rishga intiladi. Uning e'tiqodiga ko'ra, yer yuzida birorta nokas yo'q, shundaylar ham qachondir ezgu niyatli, saxovatli bo'lgan, keyin adashganlardandir.

Murakkab va sirli Pontiy Pilat obrazi Bulgakovning siyosiy tuzum, mansabdorlar adolatsizligi, oddiy xalq ustidan o'rnatiladigan siyosiy nazorat haqidagi qarashlarini namoyon qiladi.

Asardagi yana bir buyuk g'oya – Xudoning borligi va insonlarning uning borligiga ishonmay nafs botqog'iga botganligi. Yozuvchiga buni isbotlash uchun favqulodda g'ayritabiiy obraz – Volland (ya'ni shayton) qo'l keladi. Varete teatridagi sahnalar, Vollandning Berlioz va boshqa moskvaliklar bilan suhbatlari – ana shu g'oyalarni yuksak badiiy mahorat bilan isbotlab beradi. Shayton insonni Xudoning borligiga ishonirishi, isbotlar keltirishini bir tasavvur qiling... Teatr-chi?! Aslida Volland hech qanday sehrgarlik seansini namoyish etmaydi, shunchaki sahnaga chiqib, tomosha ko'rishga kelgan odamlarning naqadar moddiyatparast, ochko'z va nodonligi ustidan kuladi. Nazarimda, asarning satirik-fojiaviy markazi sifatida mana shu teatr seansi alohida ajralib turadi. "Qara, hamma narsa o'zgaribdi, ammo odamlar o'sha-o'sha" deydi mulozimiga ming yillardan beri inson zotining qilmishlarini kuzatib, bilib kelayotgan shayton, "yangi

TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA KO'ZGUSIDA

aynan foydalana olmasdi. Ikkinchi jahon urushi voqeligi, tomoshabin va kitobxon saviyasi drama voqealarini ixchamlashtirish zarurati dramaturgni tarixiy inversiyaga majburlaydi. Va u voqelikni Movarounnahr – hozirgi O'zbekiston hududiga ko'chiradi. Drama sujetiga muvofiq, Jaloliddinning Chingizxon bilan kechgan muhim jangi Amudaryoning chap sohilida – hozirgi Surxondaryo viloyati hududida bo'lib o'tadi. Jangda mag'lubiyatga uchrashi aniqligini sezgan Jaloliddin O'zbekistonning janubiy chegarasida – Amudaryoning chap sohilida turib, onasi va singlisi Sultonbegim bilan xayrlashadi. Singlisi va onasi bilan kechgan dialoglar chog'i Jaloliddin nutqida Jayhun va Amudaryo atamaları ishlatiladi.

Umuman olganda, xalqimiz aksariyat hollarda uning oti bilan sakrash voqeasini Amudaryo bilan bog'laydi. Qahramon shoirimiz Abdulla Oripov qalamiga mansub “O'zbekiston” qasidasidagi mashhur misralar ham shu mantiq asosida yozilgan:

*Seni Chingiz g'azabga to'lib
Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan.
Jaloliddin samani bo'lib
Sakrab o'tding Amudaryodan.*

o'zgaribdi, ammo o'sha-o'sha”...

barpo etilgan” sovet kommunistik jamiyatida ham odamlar avvalgilaridan hecham farq qilmasligidan afsuslanib.

Asardagi usta va Margarita obrazlari san'at, muhabbat va inson erkinining ramzidir. Yozuvchi ustani isyonkor, san'at va haqiqatga sodiq inson sifatida tasvirlaydi. Margarita shaytoniy balga rozi bo'lishi, Volanddan bitta – istalgan tilak tilashi mumkin bo'lganida chaqalog'ini o'ldirib, o'rmonga dafn qilgan Frida uchun rahm-shafqat so'rashi – uni go'zal insoniy fazilatlar hamda jasorat namunasi sifatida namoyon qiladi.

Romanda keltirilgan “Qo'lyozmalar yonmaydi” iborasi ham san'atning abadiyligi, har qanday senzura va taqiq, ta'qib va zo'ravonlik ustidan g'alaba qozonishi ramzi sifatida muhim o'rin tutadi. Bulgakov “San'at hech qachon zulm va tazyiq natijasida yo'q bo'lmaydi, uning umri taqiqlardan uzoq, tuzumlardan boqiyroq”, demoqchi bo'ladi.

Diniy mafkuralar nuqtayi nazaridan tahlil qil-sak, Bulgakov insoniyatni yaratgan yagona kuch – Xudo mavjudligi, inson esa o'z taqdiri, hayot tarzini boshqarish qobiliyatiga mutlaqo ega bo'lmagan, “hech bo'lmasa bir necha ming yillik” rejalar tuza olmaydigan ojiz mavjudot ekanini ateistligidan faxr tuyuvchi sovet kishilariga eslatib qo'yadi. Asar muallifi, qahramonlari xristian bo'lsa-da, ammo romandagi diniy qarashlar universal falsafiy mazmunga ega, ya'ni barcha yakkaxudolik dinlari uchun birday mos, aniq bir dinga targ'ib yoki boshqa dinlarga nisbatan e'tiroz mavjud emas.

Asardan shunday xulosa olish mumkin: siyosiy tuzumlar xalq manfaatini ta'minlashi, insonlar tinch-totuv va baxtli yashashlari uchun shart-sharoit yaratishi kerak. Mol-dunyo, poraxo'rlik, soxtalik va byurokratiya inson ruhini sindira olmaydi. Hech qaysi siyosiy tuzum umumbashariy haqiqatlarni inkor qila olmaydi. Inson qadri eng oliy qadriyat bo'lib qolaveradi.

Muhammadali PO'LATOV,
jurnalist

(Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1984. – 566 b).

1. Amudaryo O'rta asrlarda, xususan, arablar bosqinidan so'ng Jayhun deb atalgani manbalarda qayd etilgan. Masalan, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida daryoning Oksus yoki Oksos, Jayhun, O'kuz, Balx, Vaxsh, Amul deb atalgani haqida ma'lumot keltirilgan (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1-jild. - Toshkent: O'zME, 2000. – 735 b).

Ilmiy nuqtayi nazardan Jaloliddin nutqida Amudaryo atamasining qo'llanilishi, Abdulla Oripovning “Jaloliddin samani bo'lib sakrab o'tding Amudaryodan” deb yozishi tarixiy haqiqatga zid ekanligi aniq.

Drama yakunida muallif tarix haqiqatiga u qadar mos tushmaydigan yana bir holatni tasvirlaydi, ya'ni onasi Sultonbegim bilan bog'liq shunday muloqotni qalamga oladi:

*Ona
(kirib keladi)
Buni bergin og'angga, aytgin, bu – ma'jun.
(Bir shisha beradi)
Bilmasin, tomirimdan olingan sof xun!
U ochlikka yo'liqsa safarda agar;
Buning bitta yutumi unga jonparvar:
Endi sizlar boringiz g'urbat ellarga,
Tutqun vatan dardini chertib dillarga.
Qaytib kelgach go'rlarga soling bir nazar;
Balki unda sunbul-u rayhonlar o'sar.
Mo'g'ullarga bir oqsoch bo'lgandan ko'ra,
Baliqlarga yem bo'lsam – afzal ming karra.
Dunyoga oldin kelgan oldin ham ketar
Yashashim yetar!*

O'zini suvga tashlaydi. Sultonbegim yugurib sohilga yiqiladi.

Onaning so'zlaridan ma'lum bo'lmoqdaki, o'zi turgan yer, ya'ni Amudaryoning chap qirg'og'i – uning uchun muqaddas vatan, narigi qirg'oq, ya'ni hozirgi Afg'oniston hududi – xorij, “g'urbat el”dir.

Tarixiy haqiqatga ko'ra, Jaloliddin o'z onasi, xotini, o'g'li va boshqa yaqinlarini Sind daryosiga cho'ktirishni buyuradi. Dramada esa ona o'zini Amudaryoga tashlaydi. Bu jarayonni Maqsud Shayxzoda Jaloliddin so'zlari orqali shunday ifodalaydi:

*Jaloliddin
(shishani o'padi)
Balki yurak qonidur, yoki bir eksir;
Bir eksirki, bag'ishlar abadiy umr.
Aziz ona, qaydasan, o'lsang ham tingla,
Qayerda men tiz cho'kay qabringga, so'yla!
Bildim sening qabringdur butun shu Vatan,
Daryo sening tobuting, ko'piklar kafan.
Sohillar, izzat ila ko'taring yelka,
Jayhun to'g'ri eltadi tobutni elga
Quyosh o'zi guvohki azaldan beri,
Amudaryo oqqanmas aslo teskari!*

Jaloliddin nutqidagi obrazli ifoda Amudaryo tabiiy oqimi bo'ylab Surxondaryo va Xorazm viloyatlarini bir-biriga bog'lashiga mos tushadi va bu geografik jihatdan barchaga ayon ma'lumot.

2. Yuqoridagilardan ayon bo'lmoqdaki, Maqsud Shayxzoda drama yakuniy qismida ikki tarixiy fakt-ni o'zining ijodiy manerasiga bo'ysundiradi, ya'ni Sind daryosi bo'yida yuz bergan tarixiy voqelikni Amudaryoning chap sohiliga ko'chiradi. Yana bir bor ta'kidlash joizki, mustabid sho'ro tuzumi davrida xalqimiz Amudaryoning narigi qirg'og'ini – Afg'oniston hududini begona yurt, hatto dushmanlar o'lkasi sifatida bilgan. Ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi mafkuraviy qarashlar oqibatida dramaturg shunday yo'l tanlashga majbur bo'lgan. Tarixiy faktlar esa Xuroson, ya'ni hozirgi Afg'oniston, Eron hududlari ham Xorazmshohlar davlatiga qarashli ekanligini dalillaydi. Xususan, An-Nasaviy Qutbiddin O'zlog'shohning

valiahd sifatida e'lon qilinishi haqidagi 11-bobda shunday yozadi: “G'azna, Bomiyon, al-G'ur, Bust, Takinobod, Zamin Dovar va Hindiston bilan chegaradosh bo'lgan viloyatlarni boshqarish huquqini katta o'g'li Jaloliddin Manguberdi berdi” (Shihobiddin Muhammad an Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. – Toshkent: Fan, 2018. – 432 b).

3. Adabiyotshunoslikdagi ilmiy-nazariy tamoyillarga tayanib, tarixiy-biografik metod va gipotetik yondashuvlar asosida Maqsud Shayxzoda tarixiy inversiya jarayonida oqilona yo'l tutganini izohlash mumkin. An-Nasaviy qaydlaridan ma'lumki, Jaloliddin Xorazmshohlar davlatining hozirgi Afg'oniston hududidagi viloyatlarini boshqargan. Gipotetik nazariyaga asoslansak, u Xorazmdan Afg'onistonga borish asosida Amudaryoni kechib o'tgani, kechib o'tish jarayonida lashkariga o'rnak sifatida otini daryo qirg'og'idan sakratgani – tasavvur qilsa bo'ladigan va mantiqqa mos hodisa. Qolaversa, Mirzo Ulug'bek o'zining “To'rt ulus tarixi” asarida Balxda Muhammad Xorazmshoh ishtirokida bo'lib o'tgan harbiy kengashda Jaloliddin Amudaryo o'ng sohilida istehkom qurib Chingiz qo'shinlarini daryodan o'tkazmaslik bilan bog'liq takliflari haqidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan: “Sulton Muhammad Xorazmshoh diliga vatanga mehr hissini soldi. Bu jamoat ko'p tortishuvlardan keyin o'zni undan uzoqroqqa tortishimiz va Iroq tomonga ketishimiz lozim, degan qarorga keldi. U yerda lashkar to'playajkmiz va so'ng ishga kirishurmiz, dedilar. Sulton Jaloliddin Sulton Muhammad Xorazmshoh o'g'li bu vaqtda otasi bilan birga edi va otasining ra'yini inkor etdi va dedi: “Agar Sulton Iroqqa ketadigan bo'lsa, lashkarlarini menga qoldirsin. Men esa Jayhun daryosi bo'yida turgum. Daryoning u tomonini (mo'g'ullar) egallaydigan bo'lsa, bu tomonga o'tkazmagayman, mone'lik qilurmen. Eng to'g'ri yo'l shul” (Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 1993. – 352 b).

4. Mavjud dalillar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, Abdulla Oripov mashhur misralarni yozganda, Maqsud Shayxzoda drama voqealarini Amudaryoning chap sohiliga ko'chirganda nainki badiiylilik mezonlari asosida qalam tebratilgan, balki tarixiy faktlar mohiyatiga ham jiddiy putur yetkazilmagan. Eng muhimi, bugungi o'quvchi Jaloliddin Manguberdi tarixan Parvon jangidan so'ng o'z otida qoyadan Sind daryosiga sakragani va uni suzib o'tganini, Abdulla Oripov gipotetik tasavvurida u bu ishini Amudaryo sohilida amalga oshirganini farqlamog'i darkor. 8-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan amaldagi “Adabiyot” darsligida “Jaloliddin Manguberdi” dramasida 1217–1224-yil voqealari o'z aksini topgani, Maqsud Shayxzoda Jaloliddinni “Manguberdi” deb atagani haqida ma'lumot berilgan (Mirzayeva Z., Qodirova N., Mamiraliyev Q. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. - Toshkent: Respublika Ta'lim markazi, 2025. – 254 b).

Vaholanki, dramadagi tarixiy voqealar 1220-1221-yillarda ro'y bergan. “Mangburni” so'zini esa ilk bor yevropalik d'Osson “Manguberdi” shaklida qo'llagan. Maqsud Shayxzoda esa bu so'zni V.Bartoldning 1900-yilda nashr etilgan “Turkiston mo'g'ul bosqini davrida” kitobida o'qigan. Rus olimi “Mangburni” so'zini o'z kitobida “Manguberti” shaklida ishlatgan. Maqsud Shayxzoda ruscha so'zni o'zbekchalashtirganda “t” harfini “d”ga aylantirgan, xolos.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, maktab ta'limida tarixiy asarni o'qitish o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahorat, balki yuksak tarixiy zakovatni talab qiladi. “Jaloliddin Manguberdi” dramasini o'qitish jarayonida faqat 8-sinf “Adabiyot” darsligidan, undagi matn, metodik tavsiya, savol va topshiriqlardan foydalanlangan o'qituvchi ko'zlangan maqsadga erisholmaydi. Tarixiy materialdan ijodiy foydalanish “Jaloliddin Manguberdi” kabi asarlarni o'qitishda o'qituvchi uchun o'ziga xos muvaffaqiyat kalitidir.

Muhammad MAMATVALIYEV,
NamDU mustaqil tadqiqotchisi

Ehtirom

Maʼrifatga sadoqat

Taqdirning qizigʻi shundaki, kimningdir chekka bir qishloqdan boshlangan umr yoʻli baʼzan butun millat maʼnaviy hayoti bilan tutashib ketadi. Toshkent viloyati Chinoz tumani Yalla-ma qishlogʻidan ilm-fan maydoniga yoʻl olgan bir qizaloqning orzulari yillar osha izlanish, zahmat va fidoyilik bilan yoʻgʻrilib, bugun oʻzbek pedagogikasi osmonida yorqin bir yulduzga aylangani bunga misoldir. Bu qiz tanlagan yoʻl shunchaki martaba sari koʻtarilish emas, balki oʻqituvchilik kasbining beqiyos ahamiyatini yurakdan his etgan, metodika degan murakkab va masʼuliyatli sohani oʻz hayotining mazmuniga aylantirgan olimaning umr yoʻlidir.

Qunduxon Husanboyeva nomi bugun jamiyat maʼnaviyati uchun oʻta muhim boʻlgan “adabiy taʼlim”, “mustaqil fikrlash”, “muammoli oʻqitish”, “metodika” degan murakkab ilmiy tushunchalar bilan yonma-yon tilga olinadi. U maktab sinfonasidagi oddiy darsdan boshlangan tajribani ilmiy izlanishga aylantirgan, chiqargan ilmiy xulosalarini esa yana amaliyotga qaytarib, samaraga erisha olgan kam sonli metodistlardan. Uning faoliyatida bir jihat alohida eʼtiborni tortadi: olimning har bir ilmiy gʻoyasi ortida haqiqiy oʻquvchi, oʻz yoʻlini izlayotgan oʻqituvchi va haqiqiy adabiyot darsi turadi. Shu bois uning ilmiy-metodik qarashlari quruq nazariy fikrlar holida qolib ketmaydi, balki amaliyotda qoʻllanib, sinovdan oʻtgan harakatdagi pedagogik energiyaga aylanadi.

Pedagogikaning oʻzgarmas tutumi shundaki, davrlar oʻzgaradi, taʼlim talablari yangilanadi, biroq bir haqiqat aslo oʻzgarmaydi: millat kelajagi hamisha mustaqil fikrlaydigan avlod qoʻlida boʻladi. Diqqat qilinsa, ezgu maʼnaviyatli va mustaqil tafakkurga ega avlodni tarbiyalashni umrining bosh maqsadiga aylantirgan olim Qunduxon Husanboyeva timsolida jadidlarga xos ruhning zamonaviy davomchisini koʻrish mumkin. Uning hayoti va faoliyati – fidoyilik, ilmga sadoqat va millatga xizmatning mushohadali qissasidir.

Uning ilmiy-pedagogik faoliyati oddiy mehnat biografiyasi emas, balki izchil takomil topgan maʼnaviy-ijtimoiy hodisadir. Qunduxon Husanboyeva maktablarda ilk darslaridan boshlab taʼlim jarayonining tashqi shakliga emas, ichki mohiyatiga eʼtibor qaratib keldi. U oʻqituvchilikni faqat bilim berish emas, balki oʻquvchida fikr uygʻotish, yosh qalblarga yoʻl topish, yosh tafakkurni uygʻotish sanʼati deb bildi. Shu bois uning pedagogik qarashlarida doimo bir savol ustuvor boʻlib keldi: oʻquvchini qanday qilib mustaqil oʻylashga oʻrgatish mumkin? Ilmiy izlanishlari ham ana shu amaliy tajribadan unib chiqdi. U adabiy taʼlim jarayonini kuzatar ekan, darsning markazida boshqa narsa emas, balki oʻquvchida ezgu maʼnaviyat va mustaqil tafakkur shakllantirish turishi kerakligini asoslab berdi. Muammoli taʼlim texnologiyasi, matn tahlili orqali fikrlashni rivojlantirish, oʻzga tilli maktablarda oʻzbek adabiyotini oʻqitish metodikasi – bularning barchasi uning yagona pedagogik konsepsiyasining turli qiralaridir. Har bir yoʻnalishda u nazariy xulosani amaliy mexanizm bilan boyitadi, yaʼni “qanday oʻqitish kerak?” degan savolga aniq, tizimli javob berishga urinadi.

Olima faoliyatida metodika alohida ilmiy yoʻnalish sifatida qaror topdi. Besh alohida kitobdan iborat metodik majmua yaratishi taʼlimning barcha bosqichlarini bir butun tizim sifatida koʻra olgan ilmiy-pedagogik tafakkur mahsulidir. Maktabgacha taʼlimdan tortib magistratura bosqichigacha boʻlgan jarayonlarda adabiy taʼlimning mantiqiy uzviyligini taʼminlashga qaratilgan bu ishlar oʻzbek metodik tafakkurida yangi bosqichni boshlab berdi.

Uning ilmiy-pedagogik faoliyatidagi eng taʼsirchan jihat ilmiy qarashlarning amaliyotdan uzilmaganidir. U goʻyo darsni sinfona yoki auditoriyada emas, hayotning oʻzida tashkil etadi. “Metodist” jurnalini taʼsis etib, uni shunchaki turli maqolalar toʻplanadigan nashr emas, balki faoliyatdagi tirik metodik may-

donga aylantirdi. Vebinarlar, pedagogik turlar, chekka hududlardagi maktablarda oʻtkazilgan ochiq darslar – bularning barchasi uning “ilm amaliyot uchun” degan eʼtiqodining ifodalaridir. Bu jarayonlarda u jadidona fidoyilikni zamonaviy shaklda davom ettirdi: maosh yoki martaba uchun emas, balki millat taʼlimi ravnaqi uchun mutlaqo begʻaraz xizmat qilib kelmogʻda.

Qunduxon Husanboyevaning pedagogik faoliyati tarixi bu oʻqituvchining ilmga, olimaning esa maktabga qayta-qayta yuzlanishi tarixidir. Uning umr yoʻli shuni koʻrsatadiki, haqiqiy metodist dastur tuzish va darslik yozish bilan cheklanib qolmaydi, u oʻqituvchining yonida turadi, uning savollariga javob izlaydi, oʻquvchining tafakkurini uygʻotish uchun yoʻl qidiradi. Ana shu bosiq, ammo qatʼiy xizmat ruhida uning pedagogik maktabi shakllandi va bugun uning faoliyati avjida.

Professor Husanboyevaning ilmiy rahbarlik faoliyati ham tadqiqotchiga shunchaki dissertatsiya mavzusini belgilab, reja tuzishga yordam berish yoki ilmiy matnini tahrir qilishdan iborat emas. Uning ilmiy rahbarligi tafakkur tarbiyalash maktabidir. U tadqiqotchini tayyor xulosalar sari emas, yoʻyali savol qoʻyish jasorati tomon yetaklaydi. Chunki u yaxshi biladi: haqiqiy ilm izlanishdan, izlanish esa ichki bezovtalikdan boshlanadi. U rahbarlik qilgan dissertatsion tadqiqotlarga nazar tashlansa, ularning har biri adabiy taʼlimning muayyan har ogʻriqli nuqtasiga bagʻishlangani koʻrinadi. Insho yozish metodikasi, maktabgacha taʼlimda mustaqil fikrlash, 5–7-sinfarda oʻquv materiali ustida ishlash, boshlangʻich taʼlimda muammoli yondashuv, xalq ogʻzaki ijodini oʻrganish jarayonida oʻquvchini mustaqil fikrlashga oʻrgatish, maktabda adabiy laboratoriyalar tashkil etish...

Bu mavzularning birortasi tasodifiy tanlanmagan. Ularning ortida bir butun konsepsiya – oʻquvchini mustaqil fikrlashga oʻrgatish gʻoyasi turadi. Demak, ilmiy rahbar sifatida ham u oʻz metodik qarashlarining uzviy davomiyligini taʼminlaydi. Doktor Q.Husanboyeva tadqiqotchidan avvalo halollik va masʼuliyat talab qiladi. Ilmning qiymatini ohanjamali jumalar bilan emas, asosli dalil va amaliy natija bilan oʻlchaydi. Shogirdlariga “metodika – bu tirik darsdan tugʻilgan ilm” ekanini qayta-qayta uqitiradi. Shu bois uning rahbarligida himoya qilingan ishlar quruq nazariy umumlashma boʻlib qolmay, maktab hayotiga kirib boradigan, oʻqituvchining kundalik faoliyatida qoʻllanadigan tadqiqotlarga aylanadi.

Adabiyot oʻqitish metodikasi boʻyicha bir qator fan doktori boʻlgan mutaxassislar tayyorlaganligi olimning oʻz ilmiy maktabi shakllanganidan dalolatdir. Olima nafaqat alohida mavzular, balki butun bir metodik yoʻnalishlar tadqiqini yoʻlga qoʻymoqda. Uning ilmiy maktabida mustaqil fikrlash, muammoli taʼlim, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish kabi gʻoyalar markaziy oʻrinda turadi. Bu esa tasodif emas, balki izchil ilmiy pozitsiyaning namoyon boʻlishidir. Eng muhimi, u shogirdlarini oʻziga qaram qilib qoʻymaydi. Aksincha, ularni mustaqil yoʻl topish, ilmiy qarashini hayotiy dalillar bilan asoslashga oʻrgatadi. Chunki haqiqiy ustoz atrofida oʻzining koʻpaytirilgan nusxalarini emas, balki oʻz mustaqil ilmiy qarashiga ega shaxsiyatlar boʻlishini istaydi. Qunduxon Husanboyevaning ilmiy rahbarlik faoliyati ana shunday bosiq, ammo teran taʼsir



kuchiga ega intellektual auralidir. Bu bir zamonlar jadidlar qoʻzgʻatgan maʼrifat ruhini zamonaviy ilmiy sharoitda davom ettirayotgan tafakkur maktabi koʻrinishidir.

Professor Q.Husanboyeva faoliyatiga nazar tashlanadigan boʻlsa, uning uchun maktab – millatni uygʻotish maydoni, dars – tafakkurni ozod qilish vositasi sanalishi koʻrinadi. Olim taʼlimni yangilash orqali jamiyatni yangilashni koʻzda tutadi. Q.Husanboyeva butun ilmiy salohiyati va kuch-gʻayratini oʻquvchilar tafakkurini uygʻotish, badiiy asarlar orqali ularda ezgu maʼnaviy sifatlar shakllantirishga yoʻnaltirgan. Muhimi, uning bu yoʻldagi barcha harakatlari mutlaqo begʻaraz amalga oshiriladi. Olim oʻzining har bir nazariy qarashi amaliyotchi oʻqituvchilar uchun saboq jarayonida yordam berishini koʻzda tutadi. Koʻpchilik oʻqituvchilar Q.Husanboyevani jadidlarga mengzaydi. Jiddiy oʻylab koʻrilsa, ularning haq ekaniga bir qancha asos borligi koʻzga tashlanadi.

Avvalo, jadidlar singari u ham taʼlimni isloh qilishni shior darajasida emas, metodik amaliyot darajasida hal etishga kirishadi. Jadid maktablarga yangi darslik, yangi usul va yangi yondashuv joriy qilinganidek, u ham adabiy taʼlimda oʻquvchilarda estetik tuygʻu uygʻotish va mustaqil fikr shakllantirishni ustuvor maqsad sifatida belgilaydi. Olimning ilmiy tadqiqotlari va darsliklari oʻquvchini tayyor xulosani olishga emas, matn ustida mushohada yuritish, savol qoʻyish, fikrini asoslashga undaydi. Buni jadidlarning “fikr erkinligi” haqidagi orzularining zamonaviy metodik talqini deyish mumkin. Ikkinchidan, jadidlar millat manfaatini oʻz shaxsiy manfaatlaridan ustun qoʻya bilganlar. Ular koʻpincha ogʻir sharoitda, moddiy taʼminotsiz, ammo yuksak eʼtiqod bilan ishladi. Qunduxon Husanboyevaning oʻz hisobidan “Metodist” jurnalini tashkil etishi, uni jonli metodik maydonga aylantirishi, mamlakat viloyatlarining chekka maktablarigacha borib, ochiq darslar oʻtkazishi, bunday yurishlarga taniqli olim va oʻqituvchilarni ham jalb etishi singari turtumlari undagi fidoyilikning namoyon boʻlishidir. Bu faoliyat ortida martaba yoki manfaat emas, millat taʼlimining ertangi kuni uchun chinakam qaygʻurish turibdi. Uchinchi jihat – uzluksizlik gʻoyasi. Jadidlar maktabgacha tarbiyadan tortib oliy taʼlimgacha yagona maʼnaviy-maʼrifiy tizim boʻlishini orzu qilgan edilar. Q.Husanboyeva taʼlimning bir yoʻnalishi boʻyicha uning barcha boʻgʻinlarini qamrab oladigan metodik tizimni yaratishga erishdi. Maktabgacha taʼlim bosqichida nutq oʻstirishni ilmiy asosda yoʻlga qoʻyish uchun “Maktabgacha taʼlimda badiiy matn ustida ishlash metodikasi” darsligini, boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga adabiyot oʻqitish metodikasidan zarur tushunchalar berish uchun “Boshlangʻich sinf-larda adabiyot oʻqitish metodikasi” darsligini, boʻlajak oʻrta maktab oʻqituvchilari uchun “Adabiyot oʻqitish metodikasi” darsligini, nooʻzbek sinflarida oʻzbek adabiyotini oʻqitadigan mutaxassislar uchun “Oʻzga tilli taʼlim muassasalarida oʻzbek adabiyotini oʻqitish

metodikasi” darsligini, nihoyat magistratura bosqichidagi talabalar uchun “Adabiy taʼlim metodikasi” darsligini yaratgan olimdir.

Jahon metodika ilmi tarixida hali bir olim tomonidan uzluksiz taʼlimning barcha bosqichlari uchun kerakli didaktik ashyolarning tayyorlanishi kuzatilmagan holdir. Barcha boʻgʻinlardagi adabiy taʼlimni bir butun konsepsiya asosiga qura olish – bu jadidona tafakkurning zamonaviy koʻrinishi desa boʻladi. U oʻz ilmiy asarlarida adabiy taʼlimni amalga oshirish uzluksiz yaxlit jarayon ekanini koʻrsatib berdi. Nihoyat, jadidlar oʻqituvchini jamiyatning maʼnaviy yetakchisi deb bilganlar. Qunduxon Husanboyeva ham oʻqituvchining bilim, maʼnaviyat va kasbiy kompetensiyasini yuksaltirishni oʻz faoliyatining markaziga qoʻyadi. U tashkil etgan vebinar, trening, metodik safarlar, ilmiy rahbarlik ishlari – bularning barchasi oʻqituvchini yolgʻiz qoldirmaslik, unga amaliy yordam berish, ruhan va amalda qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan. Shu maʼnoda, u jadidlarning shunchaki tarixiy davomchisi emas, balki ularning oʻlmas gʻoyalarini bir qadar qulay yangi sharoitda amaliyotga joriy qilayotgan shaxsdir. Uning faoliyatida jadidona jasorat bosiq va qatʼiy mehnat bilan namoyon boʻladi. Bu esa haqiqiy fidokorlikning asl belgisi – kerakli gʻoyani soʻzda emas, amalda davom ettirishning koʻrinishidir.

Odatda har bir davr pedagoglari oʻz oldilariga shunday savol qoʻyishadi: biz qanday avlodni tarbiyalashimiz kerak? Bu savolga javob ustozlarning doim qilinadigan kundalik mehnati bilan beriladi. Qunduxon Husanboyeva faoliyati ana shunday eʼtiqodli umr namunasidir. U taʼlim berishni shunchaki kasb emas, balki hamishalik masʼuliyat; metodikani esa shunchaki bir fan emas, balki milliy tafakkur va maʼnaviyatni shakllantirish vositasi deb biladi. Uning hayot va faoliyat yoʻlida shovqinli daʼvolar, balandparvoz shiorlar yoʻq. Ammo izchil mehnat, qatʼiy pozitsiya va millat yoshlari kelajagini yorqinroq qilish istagi bor. Olim tomonidan yaratilgan asarlar, tarbiyalangan shogirdlar, yoʻlga qoʻyilgan tizimli metodika – bularning barchasi vaqt sinovidan oʻtib kelayotgan ilmiy boyliklardir. Haqiqiy ustozning hayoti oʻz umri bilan yakun topmaydi, balki shogirdlar faoliyatida davom etaveradi. Qunduxon Husanboyevaning ilmiy va pedagogik faoliyati ham ana shunday uzluksiz davomiylik xususiyatiga ega: u oʻz umrini taʼlimga bagʻishlabgina qolmay, kitoblari bilan kelajak avlod taʼlim-tarbiyasiga ham xizmat qilaveradi. Shu bois uning hayoti va faoliyatini bir insonning tarjimai holi emas, balki millatga muhabbat va maʼrifatga sadoqat bilan yashashning yorqin sabogʻidir deyish mumkin.

Q.Husanboyeva ilmiy faoliyatda faqat adabiyot oʻqitish metodikasi fani muammolari bilangina shugʻullanib qolmay, bugungi adabiy jarayon bilan astoydil qiziqadigan, undagi diqqatga loyiq asarlar yuzasidan oʻz fikr-u qarashlarini muntazam ravishda bildiradigan hozirjavob sinchi hamdir. Uning “Adabiyot – maʼnaviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili”, “Tahlil – adabiyotni anglash yoʻli”, “Badiiy bitiklar tahlili”, “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, “Koʻngil degan sarhadlarda” singari mono-grafiylari bugungi milliy sinchilikda oʻz oʻrniga ega boʻlgan adabiy tanqidga doir bitiklardir.

Ana shunday bilimdon olim, jonkuyar pedagog, mohir sinchi professor Qunduxon Husanboyeva bu yil qutlugʻ yetmish yoshini nishonlaydi. Biz muhtaram olimaga uzoq va mazmunli umr, yuksak ilmiy parvozlar yor boʻlishini tilaymiz!

Qozoqboy YOʻLDOSHEV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
professori, pedagogika fanlari doktori
Valijon QODIROV,
Andijon davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari doktori

“Sharq yulduzi”da gʻalati bir asar oʻqidim. Muallifi – Talantbek Pirimov. Asar ruhini tasavvur qilishingiz uchun bir muqoyasa aytay. “Panjsher qoʻshigʻi” qissasi Faynbergning “Мой Ташкент”, X.Sultonovning “Navoiy-30”, E.A.zamning “Otoyining tugʻilgan yili”, shuningdek, sal orqaga qaytsak, A.Qahhorning “Sarob”, F.Dostoyevskiyning “Kambagʻallar”, M.Svetayevaning “Мой Пыжуху” asari va shu ruhdagi boshqa asarlarga, ularning qorishmasiga oʻxshaydi: ijod zavqi bilan toʻlib-toshib yurgan ajabtovur kishilar; ularning ijtimoiy hayotga moslashishi yoki moslasholmay qiyalishi; shuningdek, maishati, sogʻlom, sovuqqon aql bilan izohlab boʻlmaydigan xatti-harakatlari qalamga olingan.

“PANJSHER QOʻSHIGʻI”NI OʻQIB...

Umuman, “Panjsher qoʻshigʻi” taniqli shoir Muxtor Komil shaxsiyati orqali davrga koʻzgu tutadi. Muallif Muxtor Komil hayotini erinmay, bamaylikotir tasvirlar ekan, avvaliga yengiltak odamlar davrasi boʻlib tuyulgan kishilar, aslida adabiyotning xor-u zorlik davrida nochor kun oʻtkarayotgan bechoralar ekanligini tushunadiz.

Nafsilambrini aytganda, bu asar kechagi kunlarga jiddiy savollar yogʻdiradi. Adabiy jarayon faqat bir hovuch tanlangan odamlardan iborat boʻlib qolgan, boshqalar esa kun oʻtkarish uchun gʻururiga shikast yetkazib yashashga majbur zamonlar manzarasiga toʻqnash kelasiz.

Talant Pirimov bu asarida yangi soʻz va ifodalarni dadil istifoda etarkan, ular bor-bora quloqqa oʻmashadi, soʻzning taʼmiga moslashib, koʻnikib borasiz, oʻsha tarzni qabul qilasiz. Shu oʻrinda, bot-bot uchraydigan baʼzi imloviy xato va qaytarqlar borligini ham aytib oʻtish kerak.

“Sheʼr sotib” tirikchilik qiladigan duppa-durust ijodkor yigitlarning nochor, ammo nedir sehrli, ajabtovur, sarson-sargardonlik damlari, negadir baayni shunday boʻlishi kerakdek, tabiiy qabul qilinadi.

Qissada Muxtor Komil degan shoirning baynalmilal jangchi sifatida afgʻon tuproqlarida qon kechgani va urushdan keyin, tinch-osuda Vatanda qon yutgani achchiq kinoya orqali muqoyasa qilinadi.

Voqealar parallel ravishda Panjsher va Toshkentda kecharkan, bir tomonda haqiqiy urush, oʻqlar yomgʻiri ostida jon hovuchlab yurgan Muxtor Komilga achinasiz. Tushunksiz urushga qurbon berilgan yoshlik, oʻt-olov hislar, tik qoyalar-u dararlarda nobud boʻlayotgan minglab yigitlar qismati oʻyga soladi.

Ikkinchi tomonda, baayni urushdan omon qolgan odamning Toshkent-u azimda tentirab, ogʻzidagi oshni joʻrabazm qilib tugatgani, qandaydir istihola va yetishmovchilik oʻrtasida qovrilib, adoyi tamom boʻlgan, biroq umidvor kayfiyati tasvirlanadi.

Bu qissani oʻqib, taniqli hofiz Oxunjon Madaliyev kuylagan “Dugohiga”, “Yurakning bir bandi uzilgan kecha” singari qoʻshiqlar matni muallifi boʻlgan Muxtor Komil shaxsiyati alohida bir mavzu ekanini tushundim.

Gap oʻn besh-yigirma yillar avvalgi Toshkentni sargardon kezgan ikki shoirning iztiroblari va oʻzigagina yarashadigan zoʻraki karrandaligi ustida emas, bu oʻrinda mavzuning oʻzani – yoʻqotilgan avlod marsiyasi, desak toʻgʻri boʻladi.

Muxtor Komil hayotda qanday feʼl-atvorli boʻlgan, bilmayman, atigi bir-ikki marta yoʻl-yoʻlakay koʻrishgan chiqarman. Ammo Ta-

Aks sado

BIZ NAVOIYDAN UZOQLASHMADIK...

Biz nega Navoiydan uzoqlashdik?

Bir uchchiq haqiqatni yan oʻlchitish kerak, bungan holdarim: Altker Navoiydan shora azgʻalashib bor-maydi. Bana asosli soha bu tin rimda oʻlta dar-mada qiligan oʻzgarishlardir. Nohlar engda Navoiy nomi bor soha, ammo Navoiy ahli, Navoiy ali va Navoiy daryogʻarshi hola engdara hola chiqarilmaydi.

Avvalki boshlangʻich sinflarda bolalarga sheʼr va-zi, gʻazal qolip, aruz asosli sodda va qiziqarli ushbu oʻrganiladi. Bu bolaga gʻazali naqat yozish emas, ha-li uni his qilish, chiqarish angash imkonini berar. Bu-gan esa aruz “ogʻir”, “kerakli” deb hisoblanib, umuman chega suriladi. Natijada oʻquvchi gʻazali his qilmaydi. Hatto universitet talabarlari ham gʻazallarni tushunish u yozga karan, ilddi oʻqiy olmaydi.

Yana bir jiddiy muammo, maktabda eski oʻzbek til-ning oʻqitilmasligi. Navoiy asarlari isl turkiyda oʻqilmay, qiziqarigan, soddaashitilgan yoki zamonaviylashtir-gan shaklda berilaypti. Bu esa bolani Navoiyga yaqin-lashtirish oʻrniga, uni yandaz uzaytiribdir.

2000-yillar boshida darsliklarga asar nashr-sak, boshlangʻich sinf kitoblarda Navoiyning oʻgʻatiri, muammolar, naboiylari mavjud edi. Ular hola ongida aqloq, tafakkur va til hissi shakllantiradi. Hozirgi dars-liklarda esa Navoiy koʻproq “narxiz shaxs” sifatida aks etadi, uning asarlari esa kitobda oʻrniga nashr qolgan.

oʻqituvchi tasavvuf ramzlarini chuqur bilishi kerak. Tasavvuf fan sifatida oliy oʻquv yurtlarida oʻqiti-ladimi, bilmayman. Shuni esda tutish kerakki, yod-lash bu xotira mashq, tushunish tafakkur mashqidir. Oʻquvchiga majoziy ishq, haqiqiy ishq, komillik kabi tushunchalar sodda va zamonaviy misollar bilan izohlanmasa, u gʻazalni “sevgi sheʼri” deb qabul qila-di. Gʻazallarni oson tushunishning yechimi qanday?

Menimcha, avval gʻazalning asl matni, keyin zamonaviy nasriy bayoni, soʻng gʻoyaviy tahlili tarzida oʻrganilsa, maqsadga muvofiq boʻladi. Oʻquvchilar bilan lugʻat ustida alohida ishlash kerak. Ramzlar, tasavvufiy istilohlar, timsol(obraz)larni tushunish ham muhim.

Poʻlat MANSUROV,
faxriy oʻqituvchi

Oramizdagi odamlar

2025-yil, 3-sentabr, 14:31.

Hamid Olimjon metrosiga yaqin joydagi ijaraxonamda ijod bilan mashg'ul bo'lib o'tirgan chog'im ustoz shoir Amir Xudoyberdi qo'ng'iroq qilib qoldi. "Allo, Naziraxon, fotoapparatingizni olib, Amir Temur xiyoboniga kela olasizmi?". Albatta, qilayotgan ishing qay darajada muhim bo'lmasin, ustozlar chaqirganda bormaslik – katta ayb. Shu sabab bu chaqiriqqa "labbay" degancha, birpasda shaylanib, xiyobonga yo'l oldim.

Turkiyadan endigina kelgan paytlarim. Vatan sog'inchi hali bosilmagan. Toshkentning har bir qarich yeriga hayrat va havas bilan entikib qarayman. Ko'p ijobiy o'zgarishlar ro'y bergan poytaxtda. Ollohg'a shukur, yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik uchun ham, mana shunday bunyodkorlik ishlari uchun ham behisob shukur!

Ana shunday xayollar va hayajon bilan bog'ga yetib kelganimda Amir

toriyidan Sirg'ali tumanigacha kelgan edi. Uning o'rni boshqa bo'lsa, meni chaqirgan bo'lardi. Qaniydi, biz ham 77 yoshimizda otaxonday chaqqon va harakatli bo'lsak, dedim ichimda.

Otaxonning "syurprizi" ham ma'lum bo'ldi. Toshkent shahridagi xususiy nashriyotlardan birida uch million so'mga 150 dona qattiq muqovali, she'r va maqolalar jamlangan "...O'zi pok" deb nomlangan shiringina kitobi nashr etilibdi. Bu

KO'KDALALIK NORQIZIL BOBO

Xudoyberdining yonida oppoq yuzli, qora qoshli, o'rta bo'yli kekxa desam, kekxa o'xshamaydigan, yoshlarday shijoatli, boshida do'ppi, egnida kostyum-shim va bo'yinbog'li, ko'rinishidan "qitmiringina" amaki turibdi. Salom-alikdan so'ng Amir aka mehmonni tanishtira ketdi: "Norqizil Kengboyev, Qashqadaryo viloyatidan kelgan, ko'plab kitoblari chiqqan, katta shoir...".

So'ngra menga yuzlanib, "Naziraxon, shoirmi chiroyli qilib tarixga muhrlab qo'ysangiz" dedi. Bunday taklifga "yo'q" deb bo'ladimi. Axir salkam 25 yildan beri insonlarni tarixga muhrlab kelmoqdaman. "Bajonidil, ustoz", degancha fotoapparatingizni "chiqillatish"ga tushdim. Otaxonni har tarafga qaratib, yurgizib, turg'izib, o'tirg'izib turli rakursda suratlar olgach, "keling, endi she'rlaringizni yozib olay" deyishimni bilaman, 77 yoshli otaxon yoshlarga xos shavq bilan sharillatib she'r o'qishga tushib ketdi. Qoyil-e, deymen otaxonni tasvirga olarkan, uning xotirasiga tan bergancha. Ba'zan hatto o'zim ham bir qog'oz she'rni qog'ozga qaramasdan o'qiy olmayman. Norqizil bobo bo'lsa shu muborak yoshda ham multiqning o'qidek. Hech qachon ko'z tegmasin.

Otaxoning she'r o'qishga bo'lgan ishtiyoqini ko'rgach mening ham ilhomim kelib 5–10 ta she'rlarini yozib olgandim o'shanda. Keyin yana hayot tashvishlariga sho'ng'ib, o'zim bilan o'zim ovora bo'lib qoldim..

2025-yil, 27-dekabr, 17:57.

Bu safar Sirg'ali tumanidagi ijaraxonadaman. Kompyuterda maqola yozib o'tiribman. Yana tanish raqamdan qo'ng'iroq bo'ldi. "Assalomu alaykum, Naziraxon, yaxshimisiz? Kelayotgan bayramlar bilan...". Bu qo'ng'iroq egasi o'sha favqulodda xotira sohibi ko'kdalalik Norqizil bobo edi. Otaxon bilan hol-ahvol so'rashgach, "nima yangiliklar?" deb so'radim. U ham hayajon bilan sizga "syurprizim" bor dedi. "Qanday syurpriz, tinchlikmi?!" desam, "ko'rishganda aytaman", dedi. Ertasi kuni soat 12:00 da ko'rishadigan bo'ldik.

2025-yil, 28-dekabr, 12:15.

Otaxon bu gal ham meni hayratga soldi. U erinmasdan "Semashko" sana-



men uchun chindan ham chiroyli yangilik bo'ldi. Chunki har bir kitob, u qaysi yo'nalishda, mavzuda bo'lmasin, ijodkorning farzandiday aziz bo'lishini ijod ahli yaxshi his qilishadi.

Norqizil bobo qo'lidagi bir dona kitobga boshqa birov uchun dastxat qo'yib qo'yg'an ekan. Shu sabab kitobning o'zim uchun kerakli sahifalarini suratga olib qo'ydim. Suhbatimiz davomida otaxonning salkam 50 yil davomida Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumanidagi maktablardan birida biologiya fani o'qituvchisi bo'lib ishlaganini eshitgach, unda siz haqingizda "Marifat" gazetasiga chiroyli fotosuratli maqola yozib bermasam uyat bo'larov, dedim. Siz o'qiyotganingiz ushbu maqola ham aynan shu sabab bilan dunyo yuzini ko'rdi.

Tinib-tinchimas, ham ijodni, ham murabbiylikni birday olib borayotgan, qo'lidagi qalamni sharaf bilan yurg'izayotgan Norqizil Kengboyev 1949-yil 26-avgustda Ko'kdala tumanidagi G'allakor (oldingi Nonxo'r) qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ilgan. 1970-yili Qarshi tibbiyot bilim yurtini imtiyozli bitirib, 1977-yili Samarqanddagi Sadridin Ayniy nomidagi pedagogika institutini tamomlagan.

Uning "Bozor polvon", "Bozor polvonning armoni" nomli dostonlari, "Ishtiqlol nuri", "El aziz" nomli she'riy to'plamlari, "Azim shoir", "Shomurod shoir", "Qashqadaryo vohasining baxshi-oqinlari", "Qashqadaryo baxshilari",

"Narziynoma", "Inson aziz" nomli kitoblari, "Biologiya fanini o'qitishda ayrim tavsiyalar" nomli ilmiy risolasi nashrdan chiqqan. Shuningdek, chiroqchilik ijodkorlarning ijod namunalari jamlangan "Kengliklar qo'shig'i" nomli kitobda ham o'z maqolasi bilan ishtirok etgan.

Otaxon she'rlari va maqolalari bilan tuman, viloyat, respublika matbuotida muntazam chiqish qilib turadi. Viloyat va respublika radio-televideniyesi orqali ham tez-tez qiziqarli ko'rsatuvlar va radioeshittirishlarda qatnashib, muxlislari ko'nglini shod qilib turadi.

"O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi", "O'zbekiston xalq ta'limi fidoyisi" ko'krak nishonlari sohibi Norqizil Kengboyev ayni paytda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Turon fanlar akademiyasi akademigi hamda Turon xalqaro yozuvchilar uyushmasining a'zosi hamdir.

Norqizil boboning "Do'ppichi qiz" nomli she'ri esa "qitmiringina" satrlari bilan o'quvchi e'tiborini tortadi:

DO'PPICHI QIZ

Sotganingiz do'ppigina,
Oy yuzingiz lo'ppigina,
Qiy boqing, siz birgina,
Do'ppichi qiz, yorim bo'ling.

Do'ppi kiyib turadursiz,
Tabassumla kuladursiz,
Kimligimni biladursiz,
Do'ppichi qiz, yorim bo'ling.

Yigitlar ko'p do'ppi olar;
Ular sizni gapga solar;
Buni ko'rib dil o'rtanar;
Do'ppichi qiz, yorim bo'ling.

Do'ppingizni kiyib oldim,
Qalbingizga quloq soldim,
Sizga oshiq bo'lib qoldim,
Do'ppichi qiz, yorim bo'ling.

DO'STLARIMGA

Tog'lar cho'qqisiga
chiqar bo'lsangiz,
Do'stlar, orangizda
men ham bo'layin.
Muqaddas Makkaga
jo'nar bo'lsangiz,
Do'stlar, safigizda
men ham bo'layin.

Mabodo hayotda adashsam yo'ldan,
Orziqib kutganim gar bo'lsa sarob.
Baxt qushin ushlolmay
uchirsam qo'ldan,
Ravon yo'lga boshlang,
turmasdan qarab.

Yaxshilar-la birga davra qursangiz,
Yonimda yor bilan men ham kelayin.
Nazm shaydosiman, ravo ko'rsangiz,
Sizga omad tilab jo'shib kuylayin.

Do'stlarim, siz mening ko'zim qarog'i,
Aslo gard qo'nmasin kiprigingizga.
Mangu porlayversin do'stlik chirog'i,
Fidoyi bo'lingiz bir-biringizga.

Nazira BOYMURODOVA,
jurnalist,
O'zbekiston badiiy akademiyasi,
Badiiy ijodkorlar uyushmasi,
Fotorassomlar sho'basini a'zosi,
fotorassom
Muallif olgan surat.

Gurung

Abdulla Boboyorov 1949-yili Qamashitumani Odoqjonbo'z qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universiteti jurnalistika fakultetida tahsil olgan. So'ngra tuman gazetasida mas'ul kotib, muharrir o'rinbosari, bosh muharrir bo'lib faoliyat olib bordi. "Qashqadaryo" gazetasida bo'lim muharriri bo'lib ishladi. Turli mavzudagi ijod namunalari markaziy gazeta va jurnallarda chop etilgan. "Qontar ovg'an kunlar" va "Omonat dunyo" nomli kitoblari nashrdan chiqqan. O'zbekiston Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmalari a'zosi.

– **Abdulla aka, aytinch, nega odam bolasi qo'shiq aytadi, she'r, hikoya yozadi, undan ko'ra yer chopsa yoki ro'zg'ori koriga yaraydigan biror ish bilan band bo'lsa yaxshi bo'lmaydimi?**

– Ma'naviyat va iqtisod. Insoniyat faqat kun kechirish, mol-dunyo orttirish bilangina cheklanishi kerakmi yoki fanda, adabiyotda tinimsiz mashaqqatlar chekib nimagadir erishishi kerakmi? Bu savol azal-azaldan insoniyat oldida ko'ndalang qo'yilib kelinadi va javobini hayotning o'zi aniq ko'rsatib turibdi. Inson faqat mablag' orttirish, dang'illama uy-joylar qurish, qimmatbaho mashinali bo'lish g'ami bilangina yashaganda edi, taraqqiyotning ming-ming yillarini bosib o'tgan bo'lsa-da, hamon baribir tadrijiy rivojlani jarayonining birinchi pog'onasida yashab yurgan, ya'ni qotib qolgan bo'lardi.

Ma'naviyati, adabiyoti yuksak xalqlarning hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyotida ham yuksak natijalarga erishishini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Buni dunyoning eng rivojlangan davlatlarining yuqori dononlariga ko'tarilib borayotgani, bu mamlakatlar taraqqiyotining mustahkam zamini – avvalo yuksak san'ati, adabiyoti ham borligini unutmasligimiz lozim. Birgina Shekspir o'z ijodi bilan necha asrlarki o'z xalqi shuhratiga shuhrat qo'shib keladi. Biz T.Drayzerni, J.Londonni, E.Hemingueyni, Folknerni o'qir ekanmiz, avvalo ularning mamlakati, u yerdagi odamlarning mashaqqatli hayoti, bu mashaqqatlarni yengish yo'lidagi jasorati ko'z oldimizdan o'tadi. Birgina Hemingueyni "Chol va dengiz"ni oling. Unda kekxa baliqchi cholning metin irodasi yorqin bo'yoqlarda ko'rsatib berilgan. Adabiyot qaysi janrda namoyon bo'lmasin, u xalqning yuzi, jamiyat hayotiga tutilgan oyna. Adib yoki shoir o'z qalbining yuksalishidan tug'ilgan ijodi jarayonida bu ishni eplay oladi. Bunga misollar nihoyatda ko'p. Adabiyot xuddi shuningdek, o'quvchining ruhiga ta'sir qilib, hayotni o'rganishga ham da'vat etadi.

Qarang, Frans Kafka bemor holidagi XX asr prozasiga keskin ta'sir qilib, uni yangiladi. "Jarayon" romanida o'zi yashagan jamiyatning ziddiyatlarini aniq tasvirlab berdi. Yoki Rabindranat Tahir asarlarini o'qir ekanmiz hind xalqining buguni va o'tmishi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Adabiyot, san'at jamiyatga faqat maqtovlardangina iborat emas, aksincha, unda to'g'ridan to'g'ri yoki zarbulmasal holatida fosh etishlar ham bo'ladi. Bunday asarlar ayniqsa hozir, atrofigimizda tez-tez sodir bo'layotgan yolg'on-u makr, yuzlab odamlarni chuv tushirish, inson qadriga nopisandlik bilan qarash kabi illatlarning tobora kuchayib va ommalashib borayotgan davrda nihoyatda zarur.



IJOD – QALBNING YUKSALISHIDIR

– **Bolalikdagi sizni ijodkor bo'lishga undagan sabablar haqida nima deysiz?**

– Ovloq qishloqdagi dehqon oilasida tug'ildim. Oilamiz sobiq sho'rolar davri-ning jabr-u sitamlari, azob-u uqubatlarini, sitamlarini nihoyatda ko'p ko'rgan. Otam urush yillarida besh yil ishchi batalyoni-ga safarbar qilinib, Sibirda daraxt kesish-ga, tirik qolish uchun tun-u kun mehnat qilishga majbur etilgan. U yerda inson qadrining toptalishini ko'p ko'rgan. Bu xo'rliklarga qarshi chiqqanligi uchun ko'p bor sovuq yerto'lalarda yotgan. Buning oqibatida og'ir dardga chalilib, uyga qay-tib kelgach ham boyniing bolasi degan tamg'a bilan kamsitilib, topgan-tutgani-ni davlatga topshirishga majbur bo'lgan. O'sha davr amaldorlarining yakka-yu yagona sigirimizni go'shtlikka olib ketish uchun hovlimizga yopirilib kelganini ko'rganman. Bu haqsizlik va alamlar mening dilimda hasratli satrlarga zamin tayyorlab borgan bo'lsa, ajab emas...

Dastlabki she'riy tuyg'ularni o'n bir yoshimda, kuzning zarrin yaproqlari to'kilib, sarrin shamollar ularni uchi-rayotgan kezlari his qilganman. Ora-dan ko'p yillar o'tgan bo'lsa-da, o'sha shamollarni hamon vujudimda his qilib turaman. Bu shamollar, kuz mezon-i-ning ipakdek mayin iplari xayollardagi mayda-chuyda tashvishlarni chirpirak qilib uchirib, ijod qilishga undaydi. Kuz haqida, bahor haqida, bahorning eng ajib mujdasi – bahor yomg'irlari haqi-da. Mening ko'plab she'rlarim yomg'ir haqida, mening yomg'irga muhabbatim haqida. Yomg'irga ham muhabbat bo'la-dimi, deysizmi? Albatta, bo'ladi. Bu hol shoirlarda, shoirtabiat kishilarda ko'p uchraydi. Yomg'ir, ayniqsa savr yomg'ir-lari tabiatning bir evrilishidir. Pokiza, beg'ubor. Bunday yomg'irlarni sevmas-dan bo'lmaydi. Mana, o'sha she'rlarim-dan birining boshlanishi:

*Zamin uzra to'kilar yomg'ir;
Yuvib ko'ngil ko'chalarini.
Bir hislardan ezilar bag'ir;
Qo'msab dilbar kechalarini.*

Kuz va bahor shamollari meni hayot haqida o'ylashga chorlayveradi. Mak-tabni bitirib Qamashi tumani gazetasida ishlay boshlashim hayot yo'limni butkul o'zgartirib yubordi. 1976-yilda Toshkent davlat universitetining jurnalistika yo'nal-ishini tugallab, tuman gazetasida mas'ul kotib, muharrir o'rinbosari, bosh muharrir bo'lib ishladim. Bu davrlarda ham she'ri-yat mening go'zal hamrohimi bo'ldi.

– **Bir muddat “Qashqadaryo” gazeta-sida ham ishlagan ekansiz, bu davr sizga nimalarni berdi?**

– Ha, ikki yil gazetada bo'lim muhar-riri bo'lib ishladim. Bu davr menga ko'p narsalarni berdi. Viloyatimizning bar-cha tumanlarida, tog'larda ham, chekka qishloqlarda ham bo'ldim. Muborakning bepoyon dashtlarini kezib cho'l odamlari, cho'ponlar, gazchilar hayoti bilan yaqin-dan tanishib, qator maqola va ocherklar yozdim. Chiroqchi adirlarini kezganim, Shahrizabz tumani odamlari haqida ma-qola yozish payida quyosh botish chog'i Oqsaroy minorasidan bu ulug'vor sha-harga hayratlanib ko'z tashlaganim, oradan o'n sakkiz yil o'tgan bo'lsa-da,



hamon yodimda. “Qashqadaryo” gaze-tasida mening eng yaxshi badiia, esse, hikoyalarim chop etilgan. O'sha payt-dagi gazetaning bosh muharriri rahmatli Narzulla Ravshanov haqiqiy ijodni yuk-sak baholar, gazeta xodimlarini yaxshi maqolalar yozishga rag'batlantirardi. Tahririyatda Nuriddin Egamov, Dilbar Kenjayeva, Nomoz Ahmedov singari iste'dodli jurnalistlar ishlaganligi sababli yaxshi ijodiy muhit yaratilgan edi. Shu sa-bab ham gazeta 2007-yili xalqaro “Oltin qalam” mukofotiga munosib ko'rildi. She'rlarim, hajviy hikoyalarim, esse va maqolalarim respublikaning “Xalq so'zi”, “Qishloq hayoti”, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati”, “Kitob dunyosi” gazetalari-da, “Sharq yulduzi”, “Yoshlik”, “Gulis-ton” jurnallarida chop etildi. 2007-yilda publitsistik asarlarim uchun “Eng ulug', eng aziz” ko'rik-tanlovi viloyat bosqichi g'olibi bo'lganman. 2023-yilda esa yana shu tanlov g'olibligi hikoyalar kitobimga berildi.

– **Ilk ijodingizni nasrda boshlagan-siz, keyinchalik esa negadir she'r qora-lashga o'tdingiz?**

– She'r qoralashga emas, she'r yozishga deng. To'g'ri, dastlab nasrda ijod qildim. Yozganlarim Murod Mu-hammad Do'st, Ibrohim G'afurov, Samar Nurov kabi adiblarning e'tiboriga tushib maqtoqlar ham eshitdim. Hajviy hiko-yalarim gazeta va jurnallarda bosilib, “Tabassum”da e'tirof etildi. O'sha yillari mazkur radiojurnalning har bir sonida ha-jviyalarim mohir aktyor Ergash Karimov tomonidan o'qilar, boshqa taniqli artistlar tomonidan ijro etilardi.

Keyinchalik meni she'riyat “yo'ldan urdi”. She'riyat bu – go'zallik, muhab-bat tuyg'ularini o'ziga xos tarzda ifoda etish imkonini beradi. Ijodkor chinakam oshiqqa aylanib o'z dardini ifodalaydi. Vatanga, ota makonga muhabbatini ayri-cha izhor etadi.

– **Ilk yozgan she'ringizni kimga o'qib bergansiz, sizni adabiyotga yetaklagan ustozlaringiz kimlar bo'lgan?**

– Mening ilk o'quvchim onam – Oy-din Norqobil qizi edi. Onam nafaqat men-ga hayot va oq sut bergan, meni balo-qa-zolardan asragan, balki ijodimning ham rahnamosi bo'lgandi.

Biz, XX asr oxiri va XXI asr bosh-lari o'zbek ijodkorlari mafkura talabi ji-

hatidan ko'proq rus adabiyotini o'qidik, o'rgandik. Bundan zarar ko'rganimiz yo'q. Tolstoy, Dostoyevskiy, Pushkin, Lermontov, Blok – buyuk mo'jiza. Ho-zirgi yosh ijodkorlar ham ularni o'rga-nishi lozim. Men Jek London, Mopasson, Heminguey asarlarini yostig'imning ta-giga qo'yib o'qiganman. Ammo o'zbek adabiyotining buyuk siymolari Navoiy, Lutfiy, Bobur yoki Ogahiy asarlarini kamroq o'qiganimdan afsuslanaman. Kamtarin ijodimda doim xalq og'zaki ijodi – termalar ruhini hamisha his qilib turaman. Jurnalist va ijodkor bo'lishim-ga ustozlarim Abdivoy Rahim, Umar Tojiyev va bir paytlar O'sh viloyatidan kelib tuman gazetasida ishlagan Mo'min-jon Ro'ziyevlarning ta'siri katta bo'lgan. Ha, Mo'minjon aka haqiqiy ijodkor edi. Hozir bosib o'tgan ijodiy yo'lga nazar tashlar ekanman bu odamni ko'p bor es-layman. Yana bir gap. O'nlab qamashilik iste'dodlarni ijod qilishga da'vat etgan in-sonlardan yana biri, atoqli adib rahmatli Samar Nurov bo'lganini alohida ta'kid-layman. O'sha paytda O'zbekiston Yo-zuvchilar uyushmasi viloyat bo'limining boshlig'i bo'lib ishlagan bu inson birinchi guruh nogironi bo'lishiga qaramay tez-tez ijodkorlar davrasini tashkil etar, kezi kel-ganda tog'larga, olis qishloqlarga safarlar uyushtirardi. U kishining tashabbusi bilan ko'plab tunlarni Chimqo'rg'on suv om-bori etaklarida, Maydanak cho'qqisining o'ngirlarida o'tkazganmiz.

– **Sizda asar yaratish jarayoni qanday sodir bo'ladi?**

– Ko'pchilik jurnalistika yo'nalishi-da ta'lim olgan talabalarni adabiyot-ni mukammal o'rgangan, degan fikrga borishadi. Yo'q, unday emas. O'sha paytlari o'quv dasturlarimiz Mosk-va davlat universiteti dasturlari asosi-da tuzilganligi sabab rus jurnalistikasi tarixi va yana allambalolar bilan to'ldirib tashlangan bo'lardi. Biz o'zbek adabiyoti-ni asosan kutubxonada o'tirib mustaqil o'qiganmiz.

Mening asosiy ustozim – o'zim o'qi-gan kitoblardir. Har bir badiiy kitob yuragi she'rga, adabiyotga oshiq bo'lgan odamga turtki beradi, ilhomlantiradi. Yosh ijodkor bu kitoblardan ta'sirlanib, taqlid qilib nimadir yozsa, so'ngra u taqliddan chiqib keta olsa, u – ijodkorga aylanadi. Mana shu ijodkorning shaklla-nish yo'lidir.

Yozganlarimni besh-olti oy, ba'zan yillab bir chetga tashlab qo'yaman va so'ngra qayta o'qiyman. Ana shunda saralari, davr talabiga javob beradigan-lari ma'lum bo'ladi. Ba'zida yaxshi deb o'ylab yurganlaringiz, ma'lum vaqt o'tgach, talabga javob bermay qolishi ham mumkin.

– **Abdulla aka, mana yoshingiz ham yetmish oltiga qarab boryapti, lekin ha-nuzgacha kattaroq tirajda kitob chiqar-ganingiz yo'q. Qarang, 9-sinf o'quvchisi bo'lgan qizcha to'rtta kitob chiqaribdi. Sizning bunga munosabatingiz?**

– Baribir shu savolni berishingini bi-lardim. Qarang, dehqon odam tomorqasi-da biror nima ekib, bozorga chiqarib sot-sa, bu hech kimni ajablantirmaydi. Ammo birorta shoir yoki adib o'zi yozgan kito-bini mashinaga ortib: “Hoy, odamlar, keb

qoling, yaxshi she'r yoki hikoyalar bor, sotib oling!” – deb yursa nima bo'ladi?!

Bu adabiyotga, ijodkorga bo'lgan e'ti-borsizlikning achchiq va aniq bir ko'ri-nishidir. Adabiyot bozorga solinmasligi lozim. Albatta, birovga majburan kitob o'qitib bo'lmaydi. Qachonki, odam ichki bir ehtiyoj sezisagina qo'lga kitob oladi. Mening kamtaringina ijodimga kelsak, bir paytlar kitob chiqarishga imkoniyat-lar bo'lgandi, ammo sustkashlik qildim, baribir qonimda sho'rodan qolgan “qu-sur”lar bor ekanda... Mayli, bizga ham bir kun omad kelar yoki, Gulshaniy bobo aytganidek, “kimga kerak bo'lsa, chiqarib olar”...

Rostini aytganda hozir kitob chiqar-ish puli borlarniki, homiy topganlarniki bo'lib qoldi. Menga nashriyotdagilar-ning “yozganlaringiz zo'r-u, lekin biz-ga ularning pulini bersangiz chiqarib beramiz-da” deyishgani alam qiladi. Mamlakatimizdagi yuzlab nashriyotlar puli borlarni, homiy topganlarni kutib yotibdi. Oqibat esa xunuk bo'layapti. Past saviyadagi kitoblar o'quvchilarning ixlosini qoldirib, adabiyot deb atalgan ilohiy xazinadan ko'nglini sovutayap-ti. Keyingi yillarda nashriyotlar o'zbek adiblari qolib, nuqul chet el adabiyotini nashr etishga o'tib olishdi. Fikrimizcha, bu borada ham tartib o'rnatish lozim.. Har bir nashriyotning yetmish-sakson foiz miqdorida o'zbek ijodkorlari asarlarini chop etishini qat'iy belgilab qo'yish payti keldi deb hisoblayman. Xullas, muammo-lar ko'p. Ular yuqori doirada tegishli tarz-da hal etilmas ekan, adabiyot maydonida depsinishlardan nariga o'tolmaymiz.

Siz ijod nima, adabiyot nima degan savol berganingizda yaxshi bo'lardi. Ijod va adabiyot nihoyatda keng tushuncha, ular ko'pdan ko'p omillarga, ijodkorning yashash tarziga, ko'ngliga borib taqaladi. Ijod degani aslida o'zlikni anglashdir. Adabiyot deganimiz esa millatni anglash, uni saqlashdir. O'zbek adabiyoti xuddi ona tilimiz kabi O'zlikni anglash, Vatanni ang-lash, kimligimizni anglash, kezi kelsa uni ming bir balo-qazolardan himoya qilish hamdir. Hozir mamlakatimizda sportga katta e'tibor berilayotgani albatta yaxshi. Bu narsa o'z samarasini beryapti. Chunki buning uchun katta mablag' sarflanyapti. Aslida sport degani insonning jismoniy imkoniyatini kuchaytiruvchi vosita. Ada-biyot esa millionlab o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy, badiiy komilligini tarbiyalaydigan buyuk xazinadir. Inson jismonan baquvvat bo'lsa-yu, ma'nan majruh bo'lsa, bu – fojia! Keling, ichimda qolib ketmasin, bir gapni aytayin. Ana shu sportga ajratilayotgan mablag'ning aqalli beshdan bir qismi adabiyotga, ma'navi-yatga ajratilsa olam guliston bo'lardi. Bu albatta, olis qishloqda yashayotgan kek-sa bir ijodkorning ko'ngil tilagi. Hozir O'zbekistonda men kabi ijodkorlar qan-chadan qancha deysiz...

Odam bolasi uchun non va suv qan-chalik qadrli bo'lsa, ma'naviy oziqa bo'lmish adabiyot ham shunchalik azizdir. Nima bo'lganda ham, shunisi quvonch-liki, adabiyot ummon singari cheksiz, chegarasiz va abadiydir. Adabiyot va ijod olamida yashagan, uning rivojiga zarra-cha hissa qo'shgan inson esa baxtlidir.

O'rolboy QOBIL suhbatlashdi.



Talqin



Buyuk ma'rifatparvar adib – Hamza Hakimzoda Niyoziyning tavallud ayyomi ham, vafoti ham bahor faslining boshi – mart oyida. Bu yil 7-mart kuni Hamza tavalludiga 137 yil to'ladi. Hamza tavallud topgan kun esa Xalqaro xotin-qizlar bayramiga ulanib ketadi. U yaratgan asarlar badiiy adabiyotning qaysi turiga mansub bo'lmasin, bugungi kunda ham dolzarbligi, badiiy qimmatini hamda ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini aslo yo'qotgan emas. Ayniqsa, uning ijodida xotin-qizlar ozodligi, hurriyati, ma'rifati, haq-huquqi, qadr-qimmatini, ularning jamiyatdagi o'rnini va mavqeyi masalalari alohida o'rin egallaydi.

Jumladan, “O'zbek xotini tilidan”, “Bir qo'rqoq mas'ul ishchi”ning tilidan”, “O'zbek xotin-qizlariga”, “Ozod xotin-qizlar qo'shig'i”, “Bu kun – 8-Mart”, “Xotin-qizlar ovozi”, “O'n kundirki, yanga-kelin birla ochmiz...”, “Hujum” xoinlariga”, “Muborak”, “Uzilgan chechaklar”, “Tursunoy marsiyasi”, “Ul ma'naviy asoratdan bo'sholmaysiz” kabi she'rlar, “Yangi saodat yoxud milliy roman”(Mariyam, Xadicha, Ruzvon xola), “Uchrashuv”(Shirin, Halimaxon) romanlari, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Maysaraning ishi”, “Paranji sirlari” va boshqa dramatik asarlari hamda publitsistik

*Onalik huquqingni hurmat etmaganlarni
Yuzlarin qaro aylab, fe'lidan pushaymon qil.*

Bu baytda onalik maqomi alohida urg'ulanadi. Ona – muqaddas. Ona – jamiyat asosi. Ayol huquqini poymol etganlarning “yuzini qaro qilish” – axloqiy va tarixiy hukm chiqarishdir. Shoir ayolni adolat talab qiluvchi, huquqini biladigan shaxs sifatida ko'rsatadi.

*Oy yuzing qaro chimmat zulmidan qutulting'il,
Chiq qorong'u turmushdan nur ichida javlon qil.*

HAMZA IJODIDA MILLAT TAQDIRI

maqolalarida xotin-qizlar ozodligi, ma'rifati, haq-huquqi, or-nomusi, sha'n va g'ururi masalalarini oldingi saflarda turib ko'tardi. Hamza o'zbek millatining onalari hurmati, qadr-qimmatini uchun kurashdi. Bu ijodning tag zamirida millat kelajagi, sog'lom turmush tarzi, ma'rifati, ma'naviyati va madaniyati, sog'lom millat genofondi masalasi turardi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning mashhur “O'zbek xotin-qizlariga” g'azali ana shunday xarakterga ega asarlaridan biridir:

*Keldi ochilur chog'i, o'zliging namoyon qil,
Parchalab kishanlarni har tomon parishon qil.*

Bu misralar g'azalning shohbayti hisoblanadi. G'azalning birinchi misrasidagi “ochilur chog'i” birikmasi tarixiy burilish, milliy uyg'onish vaqtini aks ettiradi. She'r davomida shoir ayolga murojaat qilib, o'zligini, insoniy qadr-qimmatini namoyon qilishga chaqiradi. Ikkinchi misradagi “kishanlar” so'zi – ayolni asrlar davomida ezib kelgan zulmat va jaholat, urf-odat va soxta diniy taqiqlarning ramzi sifatida ishlatilgan. Ularni butkul “parchalash” – ijtimoiy isyon timsolidir.

*Maktab, anjuman borg'il, unda fikr ochib gohi,
Ilm-u fan tig'i birla jahl bag'rini qon qil.*

She'rning ikkinchi baytida maktab va ilm so'zlarini ma'rifat quroli sifatida ishlatadi. “Ilm-u fan tig'i” – bilimning qudrati. “Jahl bag'ri” esa jaholat markazi. Shoir ayolni faqat o'rganishga emas, balki fikr bildirishga, ijtimoiy maydonga chiqishga undaydi. Ayol endi sukutdagi mavjudot emas, balki faol fikr egasi bo'lishi kerakligini uqtiradi.

*Soyalarda sarg'aygan yuzlaring qilib gulgun,
Sen ham ahli donishlar bazmini guliston qil.*

Uchinchi baytdagi “soya” – yashirinlik, cheklanish, “sarg'aygan yuz” – ruhiy so'nish ramzidir. Shoir ayolni zulmatdan chiqib, mazmunli hayotga qaytishga chaqiradi. “Ahli donishlar bazmi” – ilmiy-ma'rifiy muhit. Ayol bu muhitni bezovchi emas, balki go'zallashtiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi.

*Cho'rilikni mullalar senga qildilar taqrir,
Kel, bugun bu zaxmingga ma'rifatni darmon qil.*

G'azalning to'rtinchi baytida shoir eng keskin ijtimoiy-tanqidiy fikrlarini bildiradi. Ya'ni, adib ayollarning haq-huquqsiz, jaholatga qaram bo'lib yashashiga mullalar aybdor, “mullalar taqrir qilgan”, hukm qilgan deb ochiq aytadi. Bu yerda shoir dinni emas, dindan niqob sifatida foydalangan jaholatni tanqid qiladi. “Cho'rilik” – ijtimoiy kasallik, ma'rifat esa uning yagona davosi sifatida talqin qilinadi.

Talqin



Jadidchilik harakati zamonaviy maktab, matbaa va taraqqiyotning ilg'or usullarini yoqlab chiqqan ijtimoiy-ma'rifiy harakatdir. Jadidchilikni shakllantirishda millatimizning ziyoli qatlami – shoirlar, adiblar, ilmiy kishilar faol qatnashgan. Jamiyatni turli yomon illatlardan, madaniy qoloqlik, mustamlaka zulmi, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish va milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi bo'lgan. O'z davrida jadid adabiyotining o'nlab namoyandalari – Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Hamza, Cho'lpon, Usmon Nosir, Tavallo, Sadridin Ayniyar yetishib chiqdi. Jadidlar harakati davr ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi kunga kelib jadid adabiyoti milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida baholanib, qator kitoblar, turli asarlar nashr etilmoqda. Jadidlarimiz haqida maqolalar, adabiy va badiiy asarlar yozilmoqda. Shoirlar ijodida ham ularga atab yozilgan she'rlarga duch kelamiz.

O'roz Haydar ijodida ham jadidlarimiz siymosi aks ettirilgan maqola, she'r va sonetlar uchraydi. Xususidan, Abdulla Qodiriy haqida yozgan “Adib iztiroblari – zamon va makon iztiroblari” badiasida yozuvchining “Mehrobdan chayon” asari ustida to'xtaladi. Bu asarni “Mehrobdan chayon” – Turkiston yerining rus bosqinchilari tomonidan ishg'ol etilishiga yo'l qo'ymaslik hamda parokanda xalqni birlashtirishga chorlovchi Ogohnoma ekanligini nazardan qochirib bo'lmaydi”, deb ta'kidlarkan, uni “Millat yuragiga aylangan asarlardan biridir”, deydi (O'roz Haydar. “Yo'l olovli chohdan o'tadi”. Badia va esselar. Qarshi. Nasaf. NMIU. 2022. 8-9-b).

Ijodkorning “101 sonet” to'plamida Abdulla Qodiriyga bag'ishlangan 6 ta sonet bor. Birinchi sonetda adib siymosini talqin etar ekan, Turkistonni olov qa'rida azoblanayotgan yurt holidi tasvirlaydi. Keyingi sonetda adibning “O'tkan kunlar” asarini “Savti – yalovim” deb ataydi. “Jinlar bazmi” hikoyasi, “Mehrobdan chayon” asari haqida to'xtaladi.

Shoirning:

*Sevgi masjidida mehrobdan chayon,
Fasod xayollardan yoqdi olovini –*

misralarida Solih maxdum, Abdurahmon, Xudoyorxon va boshqa mutaassib kishilar eslanadi. Bu bitiklar beixtiyor xonga yuzlanib, o'limni maqbul topgan Anvarning jasoratini ko'z oldimizga keltiradi. Shu sonetning keyingi katrenida:

*Haydaliq kuyini chaldi do'st – yovim,
Ko'zyoshi so'lakka qorishib chunon,
Quyosh – qorsiz yongan ulkan otashdon,
Ozod-u mahbusdir, shuldir oqlavim –*

misralari keltiriladi. Bu “O'tkan kunlar” asaridagi Otabekning qaynotasi tomonidan aybsiz haydaliqidagi ezgin bir holatini ko'z o'ngimizda jonlantiradi. Go'yoki Otabek qo'rsiz yonayotgan ulkan otashdon – Quyoshga o'xshatilmoqda. Ham ishq o'tida kuyayotgan, ham zamona nobakorlari qasdidan zoda ko'ngil, buning ustiga o'z qaynotasi tomonidan aybsiz haydalgan ozod mahbus. Shoir shu yerda juda chiroyli fikr bergan: “Ozod mahbusdir, shudir oqlavim”.

Oltinchi sonetda:

ZAMONAVIY ADABIYOTDA JADIDLAR SHAXSIGA MUNOSABAT

(SHOIR O'ROZ HAYDAR IJODI MISOLIDA)



*Siz o'shami?" – uchgay Kumushning ohi,
Sevgi madhiyasi tiriklikka bu –*

misralari orqali go'zal va oqila Kumushning barcha kitobxonlar ko'ngliga singib ketgan shu aytgan so'zi sevgi madhiyasiga aylandi. Modomiki, shu so'z Otabekni o'ziga keltirgan ekan, bu tiriklikning so'zidir. Sonet:

*Qars-qars sinar muzlar, qisirlaydi
Ko'k, Turkiston qaytadi, Erkimning uni.
Toshdan gulxan yoqar, uyg'onur Mashriq –*

deya yakunlanadi. Havo iliqlashsa, muzlar qars-qars sinadi, suvlar erib oqadi. Ko'kdan yomg'ir yog'adi. Yerga yashillik inadi. Qahraton chekinadi. Yurtga ko'karish fasli kiradi. Turkistonda qullik, mustabidlik tugaydi. Erk ovozi balandroq chiqa boshlaydi. Jadidlar istagan islohotlar amalga osha boshlaydi. Xalq o'zini anglay boshlaydi. Kecha toshni-toshga urib gulxan yoqqan xalq Mashriqni uyg'otmoqda. Jadidlarning ham istaklari shu emasmidi, aslida?

Yoki O'roz Haydarning "Abdulla Qodiriy yodi" nomli she'rida:

*Tahoratni olarkan adib,
So'ng tik boqdi askar ko'ziga.
Kiprik qoqmay, na bir o'rtanib,
Achinmadi hatto o'ziga*

– deydi. Bu misralar orqali Abdulla Qodiriy holati beixtiyor ko'z oldimizga keladi. O'limidan oldin tahorat olishni qasd qilgan, o'lishdan zarracha xavotirga tushmagan, aksincha, o'zining haqligini bilaturib, askar ko'ziga kiprik qoqmay tik qarayotgan, o'ziga achinmagan inson obrazi o'quvchida juda katta iztirob ifodasini uyg'otadi. Xuddi shu holat etni junjiktirar darajada dahshatli hissiyot uyg'otsa-da, adibning kiprik qoqmay turishi mardlikni his ettiradi. Haqiqatan ham, o'sha davr uchun shunday qurbonliklar kerak edi. Razillarga esa qotilliklar go'yo hayit bayramidek bir zamon edi. Chunki manfur kimsalar doim adolatni toptab, Olloh kalomini yo'qqa chiqarib huzur topgan.

Ulug'i, olimi, ma'rifatlisi xorlansa, jim qarab turgan xalq, qanday xalq bo'lishi mumkin? Agar Yusufbek hoji bo'lganida edi "Bu xalqni yer yutsin", deb aytar edi, – deydi shoir. Yoki:

*Ulug'ini xorlagan
yurtdan,
Ming bor aziz
Sahroyi Kabir.
Milyon yilki
g'ingshiydi itday,
Zanjirini uzolmay sabr.*

Sahroyi Kabir eng katta cho'lining nomi. Giyoh unmas, qonli voqealarning shohidi bo'lgan biyobon.

Necha-necha voqealar guvohi bo'lgan esa-da, u gung va soqov. Ulug'i xo'rlangan yurt o'sha Sahroyi Kabirdek. Ko'rib turib ayta olmasa, u go'yoki zanjirdagi g'ingshib yotgan it kabidir. It ham zanjirin uzolmay g'ingshiganidek,

ko'zi ochiq xalq gapira olmay yillar bo'yi sabrda. Yoki "Usmon Nosir" sherida:

*Sen chekkan qayg'udan qon isi kelar,
To'kkan ko'z yoshingdan jon isi kelar.
Qorlar sharpasidan o'limning sasi,
Qorli o'lkalardan ont isi kelar.
Mardliging mayoqdek chorlar beimo,
Bosgan izlaringdan shon isi kelar.*

Qaysi bir she'rini oqimang, hissiyotga to'liq, go'zal tuyg'ular, o'y-kechinmalar, ajoyib tasvirlar ifodasini yarata olgan Usmon Nosir hayoti juda ayanchli yakun topgan. Shoir O'roz Haydar Rauf Parfi bilan bog'liq bir voqeani "Chaqmoqqa aylangan shoir" badiasida aytib o'tadi. "Rauf Parfi yotoqxonamizga tez-tez kelib turar, o'zining she'rlari bilan bizni xushnud etardi. Bir gal Rauf aka qatag'on qurboni – shoir Usmon Nosir she'riyati shaffofligi, qalb kechinmalari uyg'oqligi, tasavvur siyratida olam va odam go'zalligi ranginligini, maftunkor jozibasi bilan muzlagan shuurga otash tutishini gapira turib, uzoq jim bo'lib qoldi. Ko'zlarida yosh sizganini sezdim. So'ng u kishi Usmon Nosirning achchiq qismatini aytib berdi", deb yozadi. "Kemero-vodagi turmada mahbuslarning bitlab ketgan matraslarini yoqishar ekan. Bir gal Usmon Nosir voqea joyiga yetib kelib alanga ichidan o'z matrasini axtaradi. Hamma "pulim" deb dod solsa, u "voy she'rim" deb dod solgan ekan. Aytishlaricha, hamma narsasini matras ichida saqlagan. Shoir ham yozganlarini matrasning ichida saqlagan. U qo'li kuysa ham parvo qilmagan, qizarib ketgan qo'lini qorga tiqib, yana o'z matrasini izlagan. Afsuski, matras orasida saqlangan qanchadan qancha she'rlar gulxanda kuyib kul bo'lgan. Ana shu yo'qotish Usmonga katta ta'sir qilgan".

Rauf Parfining bu hikoyasi O'roz Haydarga qattiq ta'sir qilgan. Balki a'zoyi badanida titroq uyg'ongan-dir, manglayidan muzdek ter oqqandir. Keyinchalik ushbu she'rning yozilishiga sabab bo'lgan. Ha, Usmon Nosir chekkan qayg'ulardan qon isi keladi. To'kkan ko'zyoshlari tirik jonning qonli ko'zyoshlari bo'lgan. Qorlar yurtida o'lim sharpasi izg'ib yurgan yurtda o'z Vataniga sodiqlik, she'riyatga sodiqlik onti qasam kabi bo'lgan. Uning mardligi mayoq kabi bo'lsa, bosgan har izidan vatan shon-shavkatining isi keladi. She'rni "Ey Usmon, so'zingdan shon isi kelar, O'rozning she'ridan non isi kelar" deb yakunlaydi. Shoir o'z yurti, xalqining shon-shavkati uchun qayg'urib she'r yozgan bo'l-

sa, men-chi qorin g'amida she'r yozmoqdaman, deydi xijolatli tarzda.

Yoki "Ona tilim" she'rida:

*Sen Cho'lpon nolas, Qodiriy ohi,
Oybek zabonida toshdek osilding.
Fitratning shonidan qo'r tutding gohi,
Usmon ko'zlariga qordek bosilding –*

deb jadidlarni armon bilan yod etadi.

Shoirning "Falak favvorasi" kitobiga Cho'lponga bag'ishlab yozilgan qator sonetlar kiritilgan. Birinchi sonetni:

*Ey, ona Turkiston – Haqning darboni,
Darvozung kalitin tutqazding kimga?
Qo'l ochding, yo'l ochding, nechun O'limga,
Karvoning adashgan, qani sarboni? –*

deb so'rovlar bilan boshlaydi. Nazarimizda, bu misralarni tahlil etishga hojat yo'qday.

Keyingi misrada Cho'lponning she'riy misrasi keltiriladi:

*Yurt kuysa, ishi yo'q, g'aflat o'g'lonin.
Hamma tushib olgan go'yoki xumga.
Bazo'r nafas olur ko'milib qumga,
Kindigi uzilib bekklik unvonin".*

O'g'lonlar g'aflatda, barcha xum ichiga tushib olgandek, sassiz, sadosiz. Sahrolarda odamni uchirib ketguvchi girdibod shamollar bo'lganda karvon kishilari jon saqlash uchun katta-katta xumlarning ichiga tushib olishar ekan. Toki shamol tingunga qadar. Yurt o'g'lonlari ahvoli shu holatga o'xshatilgan. Nahot, qum ko'mgandek jimsiz, demoqchi shoir.

*Go'daklar ko'zida tosh qotgan ta'na,
Yo'qsillik arkidan panoh axtarib,
O'liklar uyidan so'rar boshpana –*

deya yakunlanadi sonet.

To'rtinchi sonetning so'nggi bandi:

*Bir mo'yi qilt etmay sotdi Vatanin.
Xalqni tor chiziqqa "egallik" etdi,
Va lekin o'zlari o'lmayin yitdi –*

deb tugallanadi.

Bir tuki ham qilt etmay Vatanni sotganlarga, or-nomus sabab o'lmasdan burun o'lganlarga ochiqdan ochiq nafrat aks etgan bu she'rlarda. Har qanday xatoni kechirish mumkin, biroq yurt xoinlarini hech kim kechirmaydi. Shoirning ko'rib chiqilgan she'rlarida loqaydlik va befarqlik, qo'rqqoqlik va zulm, ayrim ochko'z shaxslarning yurtini o'ylamay, nafslari yo'lida ne-ne kishilarni qurbon qilganligi tilga olinadi, ularga o'zining munosabati bilan yakunlanadi.

Jadidlar asarlari xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanib ulgurgan. O'z davrida yoqilgan, uylar yer-to'lasidan topib chiqib kuydirilgan, kutubxonalardan izsiz yo'qotilgan bo'lsa-da, ular millat xotirasidan o'chmaydi. Kelajak avlod ham o'qiya, biz ham o'qib ko'nglimizga taskin topaveramiz.

Marg'uba MUQADOVA,
tadqiqotchi,
Urgut tumanidagi
28-maktab ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

MATNSHUNOSLIKNING QUVONCH VA TASHVISHLARI

(Davomi. Boshi 4-5-betlarda.)

Navoyi to'la asarlar to'plamining, ayniqsa, "Hayrat ul-abror" hamda "Farhod va Shirin" dostonlari o'rin olgan oltinchi jildidagi 132 baytda matnga oid xato borligi aniqlandi. Ayrim baytlarda 2-3 tadan xato mavjud.

O'yga tolasiz. Nega necha-necha nufuzli nashrlardan ko'chirilgan bu kitob abgor ahvolda chop etildi?

Gap shundaki, nashrdan oldin Navoyi to'liq asarlari matni matnshunoslar tomonidan maxsus tayyorlanmagan. Nashr mutasaddilari matnni mukammal holga keltirib, ustidan qayta-qayta ishlab, xato-kamchiliklarini tuzatib, sahih holatga keltirib nashrga bermaganlar. Hatto, ko'p tomlikning musahhihlik nusxalari ham diqqat bilan o'qib chiqilmagan. Nashriyot ham ularning ra'yiga qarang. Xatolarning tabiati shundan dalolat beradiki, 2006-yili lotin imlosida chop etilgan "Xamsa" elektron varianti kompyuter dasturida kirill yozuviga o'girilgan. Oqibatda, "r" harfi "p"ga, "p" harfi "r"ga, "y" harfi "e"ga, "o" harfi "u"ga aylangan, lotindagi savodli matn kirilda savodsizlashgan.

Gapimiz quruq bo'lmasligi uchun, bir necha bayt misol keltiramiz:

Kimni qul aylab bu samumi balo,
Dard-u balo ko'zgusi torib jilo.

"Topib" so'zi "torib"
bo'lib ketgan.

Qush ko'r o'lur bog' harimig'a xos,
Bulbul ila gulga bo'lur ixtisos.

"Ko'p" so'zi "ko'r"ga
aylanib qolgan.

Qolmadi chun o'zga manga chopae,
Qal'a yasardek toribon xopae.

"Chora" so'zi "chopa", "topibon"
so'zi "toribon", "xora" so'zi "xopae"
bo'lib o'zgargan. Bir baytda uchta matniy xato!

Olim agar jon uchun o'lsa zalil,
Ilmni aning jahlig'a bo'lg'ay dalil.

Ushbu baytda "joh" so'zi "jon", "ilmi" so'zi "ilmni" bo'lib qolgan. Navoyi dostonlari navoyishunoslik tarixida hech qachon bunchalar nuqson bilan nashr etilmagan edi.

Adabiy asarlar, shu jumladan, Navoyi asarlari matnlari nashrlari ham "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunning 6-moddasiga binoan mualliflik huquqi obyekti hisoblanadi. Mazkur qonunga ko'ra, Navoyi to'la asarlar to'plamidagi tahlil etilgan hodisa "Xamsa"ning 2006-yilgi nashri-

ga nisbatan huquqiy jihatdan plagiatlik, ya'ni ko'chirmakashlik hisoblanadi. Shu qonunning 10-moddasiga binoan, *"Asar kimning ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ana shu fuqaro asar muallifi deb e'tirof etiladi"*. Garchi oldingi nashrlardan o'zlashtirgan bo'lsa-da, lotin imlosida birinchi marta chop etilgani uchun, mazkur nashrda ilmiy-tanqidiy matnlar asosida nashrga tayyorlovchi, ya'ni ijodiy mehnat egasi V.Rahmonov bo'lib, u nashr muallifi hisoblanadi. Binobarin, Mirobod tumani prokuraturasi tomonidan 2016-yili O'zR FA Alisher Navoyi nomidagi Til va adabiyot institutining mansabdor shaxslariga nisbatan O'zR JK-ning 205-moddasi 2-qismi "V" bandi bilan qo'zg'atilgan 41/16-3001-sonli jinoyat ishi ko'rilganida, V.Rahmonov o'zining mualliflik huquqini talab qilib, sudga ariza bilan murojaat qilgan va nashrda plagiatlik(ko'chirmakashlik) jinoyati tan olinib, uning da'vosi qanoatlantirilgan.

Kitob yaroqsiz, brak mahsulot sifatida nashr etilgani bilan keng doiradagi iste'molchilar huquqiga ham xiyonat qilingan. Chunki oddiy kitobxonlardan tortib, mutaxassislariga cha uni sifatli va mo'tabar nashr deb o'ylab sotib olganlar. Bugun bu kitob xonadonlarda, darsxonalarda, shaxsiy va davlat milliy kutubxonalarida, kitob do'konlarida, xorijiy mamlakatlar kitob javonlarida savlat to'kib, ziynat bo'lib turibdi. Kitob egalari uning kamchiliklaridan bexabarlar. Ushbu kitobdan yuzlab mutaxassislar ham sotib olganlariga qaramay, bir-ikki jonkuyardan boshqa hech kim uning siyrati haqida sado chiqarmaydi. Go'yo aksariyat kitobxonlar uni o'z kitob javonlariga faqat zeb-u hasham – o'zlarining ziyoli ekanini ko'rsatish uchun qo'yib qo'ygandek. Aslida kitob muqaddas dasturulamal manba. U ko'p yillar foydalanish uchun mo'ljallab chop etiladi. Undan xonadonlarida foydalanadigan navoyixonlar, kutubxonadan olib mutolaa etadigan tolibi ilmlar Navoyi asarlarining ma'nolari to'g'risida xatolar tufayli yanglish, noto'g'ri ma'lumot oladilar, adashadilar. Bas, shunday ekan, bunday yaroqsiz, brak mahsulot bekor qilinishi, ya'ni iste'moldan, muomaladan chiqarilishi kerak. Biroq biz *"Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"*gi qonunning biror moddasida bunday kitob mahsulotlarini bekor qilish to'g'risidagi qoidani topolmadik. Qonun moddalarida asosan iste'molchining moddiy mahsulotlar iste'moliga nisbatan huquqlari belgilangan. Iste'molchilarning kitob singari moddiy mahsulotlarga nisbatan huquqlari deyarli nazarda tutilmagan.

Bordi-yu kitobxon Navoyining to'la asarlar to'plami 6-tomidagi nuqsonlarni bilib qolib, o'z huquqidan foydalanmoqchi, ya'ni qo'lidagi kitobni nuqsonsiz nusxasiga almashtirib olmoqchi bo'lsa, uning huquqini himoya qiladigan qonun moddasi bormi? Qonunning *"Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari"* sarlavhali 13-moddasida *"tovarni ayni shunday markali maqbul sifatli tovarga almashtirib berish"* qoidasi mustahkamlangan.

Qonunda nuqsonli tovarni almashtirib olish muddati, shartnoma muddati, kafolat muddati kabi tushunchalar bor. Ularni bevosita kitob mahsulotlariga, xususan, adabiy matn nashrlariga tatbiq etish qiyin. Chunki kitobni xaridor do'kondan sotib oladi. Aksariyat hollarda u sotuvchidan chek talab qilmaydi yo chekni tashlab yuboradi. Sotuvchi bilan shartnoma tuzmaydi. Kitob mahsulotiga kafolat muddati qo'yilmagan bo'ladi. Binobarin, kitob, ayniqsa, Navoyi asarlari uzoq muddat mobaynida iste'mol qilinadigan, ya'ni o'qiladigan mahsulot. Shunga ko'ra, kitobxon asarning nuqsonligi yoki yaroqsizligini juda kech – kitobni to'liq o'qib chiqqanidan so'ng anglab yetadi. Kitob javoniga hasham uchun qo'ygan "kitobxon" esa buni hech qachon anglab yetmaydi. Tabiiyki, kitobxon mazkur qonun imkoniyatlaridan foydalana olmaydi. Shuning uchun kitob va badiiy asar mahsulotlariga nisbatan iste'molchi huquqlarini himoya qilish to'g'risida maxsus qonun qabul qilish maqsadga muvofiq bo'lardi. Buning natijasida Prezident Shavkat Mirziyoyev kitobxonlik borasida olib borayotgan yangicha siyosat va e'lon qilgan qaror hamda farmoyishlariga muvofiq huquqiy asos vujudga kelardi.

Nuqsonli kitobdan foydalanagan kitobxon nafaqat moddiy, balki ma'naviy zarar ham ko'radi. Ya'ni xatolarning ko'pligi kasriga Navoyi asarlari mazmunini to'g'ri tushuna olmaydi, noto'g'ri tushunadi, chalkashadi, yanglishadi, g'alat tasavvur hosil qiladi. Iste'molchi, ya'ni kitobxon ko'rgan ma'naviy zarari evaziga haq undirish huquqiga ega. Qonunning 22-moddasida *"Ma'naviy zarar uchun haq to'lash"* qoidasi quyidagicha belgilangan: *"Iste'molchining huquqlari buzilishi tufayli unga yetkazilgan ma'naviy zarar uchun uni yetkazgan shaxs, bosharti u aybdor bo'lsa, haq to'lashi lozim. Ma'naviy zarar uchun to'lanadigan haq miqdorini sud belgilaydi. Ma'naviy zarar uchun haq to'lash mulkiy ziyon va iste'molchi ko'rgan zararining o'zni qoplanishidan qat'i nazar, amalga oshiriladi"*.

Ammo bizning milliy mentalitetimizda yaroqsiz kitobdan ko'rgan ma'naviy zararlari uchun haq undirish maqsadida kitobxonlarimiz sudga murojaat qilarmikanlar?

Nazarimizda, bayon etilgan tahliliy ma'lumotlardan kelib chiqib, quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim. Shubhasiz, Navoyi to'la asarlar to'plami qachondir yana nashr etiladi. Uni nashrga tayyorlashda mazkur nashr nuqsonlari matnshunos olimlarga saboq bo'lishi; ikkinchidan, Navoyi tavalludining 500 yilligi arafasida tuzilgan va samarali faoliyat ko'rsatgan Navoyi qo'mitasi tiklanishi va uning huzurida Matnshunoslik komissiyasi tuzilishi yoki tiklanishi lozim. Davlat tilini rivojlantirish departamenti huzurida Matnshunoslik komissiyasi tuzilgan, degan gap bor, lekin uning mavjudligi va ishlayotganligi sezilmaydi; uchinchidan, Navoyi va boshqa mumtoz adiblarimiz asarlari nashrlari uchun tahrir hay'ati tuzilishi va ma'naviy mulkimizga aylangan biron-bir asarning tahrir hay'atisiz chop etilishiga yo'l qo'ymaslik; to'rtinchidan, Navoyi merosi va umuman, adabiy asarlar nashrida monopoliya va korrupsiyaga barham berilishi; beshinchidan, "Navoyi to'la asarlar to'plami"ning 6-jildi nuqsonli nashr sifatida bekor qilinishi(ya'ni tasarrufdan, iste'moldan, muomaladan chiqarilishi), uning o'rniga shu kitobning yangi nuqsonsiz nashri yaratilib, matbuot orqali e'lon berilishi va shu e'lon orqali kitobxonlar nashriyotga borib, qo'llaridagi nuqsonli kitobni almashtirib olishlari ta'minlanishi; oltinchidan, yaratiladigan yangi qonunlarda ana shunday yaroqsiz kitob tayyorlagan mualliflardan ularga to'langan qalam haqlari davlat hisobiga qaytarib olinishi haqidagi qoida o'rnatilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan anglashiladiki, ma'naviy huquq salmoqli mazmun-mohiyatga ega bo'lgan ijtimoiy tushuncha ekan. Ma'naviy huquqni tushunish, anglash, huquqiy madaniyat hosil qilish har bir insonning, shu jumladan, har bir matnshunosning ham ma'naviy-ma'rifiy yetukligiga bog'liqdir. Ma'naviy huquq tushunchasiga va huquqiy madaniyatga ega bo'lish har bir shaxs va jamiyatning vijdon immuniteti mustahkamligi alomatidir. Ma'naviy huquqini anglagan fuqarolarning ko'pligi jamiyatning milliy boyligidir. O'zbekistonning buyuk kelajagini shunday fuqarolar barpo etadilar.

Nusratullo JUMAXO'JA,
filologiya fanlari doktori,
professor

Erta tong. Tungi chigirtkalar chirillashi, baqalar tovushi tingan. Tong otdi degandek qushlar chug'ur-chug'uri olamni tutgan, kimningdir hovlisida xo'roz qichqiradi: Tong otdi-i-i...

Jasurjon ham saharlab turib oldi. Alang-jalang atrofga qaradi. Onasi o'rnida yo'q, allaqachon joyi yig'ilgan. Sigirlarni sog'ayotgan bo'lsa kerak, yo ko'chani supurayaptimikan?

– Ayaaaa... – ovozining boricha onasini chaqirdi.

Onasi qolib bobosi yoniga yugurib keldi:

– Ha, bolam, uyg'ondingizmi? Ota o'g'il, ota o'g'il... Nasibali-da, erta turgan rizqli bo'ladi.

– Toychog'im turibdimi?

– Ha, bolam, turibdi toychog'ing.

“Bo'lar bola mol deb turarmish, bo'lmas bola non deb turarmish”. Bobosining xayolidan otasining ushbu maqoli o'tarkan, “Nevaraginam zukko, ziyrak bola chiqdi”, deb qo'ydi.

– Dadam keldimi? – Bobosining: “Uxlab tursangiz, otangiz keladi”, degan gapini eslatdi.

– Keladi, bolam, keladi. Kecha samolyot uchmay qolibdi.

– Doim yolg'on gapirasiz. Siz o'tirikchisiz...

Bobosi kalovlanib qoldi. “Aldagani bola yaxshi”, derdilar. Hozirgi bolalarni aldab bo'lmaydi.

– Yo'q, o'tirik aytmadim, otang keladi, albatta, keladi. Turing-chi, bet-qo'lingizni yuving. Otga mindirib, bir qishloqni aylantirib kelaman. – Nabirasining otni yaxshi ko'rishidan foydalangan bobosi uni chalg'itadi. Jasurjon irg'ib o'rnidan turib, bobosini quchoqladi.

– Siz hammaning bobosidan zo'rsiz!!

– Ha, hozirgina o'tirikchi edik-ku? Mayli, mayli... Shunisiga ham rahmat! Boriga shukur, boriga shukur...

Bola-da... Qancha yaxshi gapirmaylik, erkalatib suymaylik otasining o'rnini bosa olmas ekanmiz. O'g'li Bahodirning Rossiyaga ishga ketganiga mana uch yildan oshibdi(Ikki singlisini o'qitishni zimmasiga oldi. Baraka topkur). Jasurjon otasi bilan telefonda tanishdi. Zamonidan aylanay. Shu telefonni chiqarganning otasiga rahmat!

Qishloqning ko'pgina yigitlari chet elga pul to'pish uchun oilasini, mitti polaponlarini uyga tashlab ketishgan, musofirchilikni bo'yinga olib. Musofirning noni qattiq. Orqasida qolganlarga ham qiyin. Ayni o'ynab-kuladigan navqiron davrini ayriliqda o'tkazish... Rizqi o'sha taraflarga sochilgan ekanda...

Bu har kungi holat edi. Yoz o'tdi. Kuz o'tdi... Sog'inch Jasurjonni, unga termulib mehr-la ertaklar aytib, boshlarini silagan kelinchakni ancha toliqtirib qo'ygandi. Ertaklari faqat yaxshiliklar bilan tugardi.

– Bolam, dadang qachon kelarkan-a?

“TELEFON DADA” (Hikoya)

Jasurjonning o'zga-cha olami bor edi. Unda botirlar ot minib uchar, sehg'arlar tilaklarga yetkazar, yaxshi, odobli bo'lsa dadalar safarlardan eson-omon qaytishardi.

Jasurjon yangi yilda keladigan Qorboboni intiq kuta boshladi. Dam-badam onasidan so'rardi:

– Aya, Qorbobo keladimi?

– Ha, bolajonim, albatta keladi.

– Uning sehrli hassasi bor-a?

– Ha...

– U nimani istasam, shuni muhayyo qiladi-ya?

– Ha... – Onasi uning savollariga bamaylixotir, beparvolik bilan javob berardi.

– Qanday yaxshi. Qorboboning sehrli hassasi bor. Bilaman. Buni onam, bog'cha opam biladi. Hammasini bilaman.

Jasurjon kun bo'yi shu haqida o'yladi. Kech kirdi. Dasturxon bayramona bezatilgan. Amakisining bolalari noz-ne'matlarga qarab zavqlanar, turli pishiriqlar, yangi yil tortini qayta-qayta tomosha qilardi. Jasurjonga hech narsa totimasdi. U betoqat bo'la boshladi:

– Qorbobo qachon keladi?

Eshik taqilladi. Hamma kutgan Qorbobo kirib

keldi. Sovg'alar ulashildi, bolalar xursand. Sovg'alar ochildi. Barchasi kecha bobosi Qorbobodan nima istashlarini so'raganda aytilgan sovg'alar. Jasurjon hech narsa so'ramadi. Qorbobo kelsa, aytadi. Bobosi uni quvontirish uchun toychoq o'yinchoq olgan edi. Bolalar sovg'alaridan ko'ngillari to'lgach, qiyqirishib, dadasi va bobosining bag'riga otildi. Faqat Jasurjon sovg'ani ochib ko'rmadi.

Qorbobo sovg'aga ma'yus termulib turgan Jasurjonjonga:

– Qani, o'g'lim, ochmaysanmi? – dedi.

U boshini yo'q deganday silkitdi.

– Menga sovg'a kerakmas.

– Eeee, unda nima kerak?

– Hassangiz sehrlimi?

– Albatta, sehrli.

– Bir tilak aysam, maylimi?

– Xo'sh, qanaqa tilak?

– Siz Rossiyani bilasizmi?

– Ha.

– O'sha joyda bizning uy bor. Dadam yashaydi.

Menga dadamni olib keling.

– Dadangni?..

– Ha. U biz bilan yashasin. Hech qachon u yoqqa bormasin. Men dadam yonimda, qo'llarimni ushlab yurishini, Sobirning dadasidek osmonlarga otib o'ynatishini, otga ham bobom emas, dadam min-dirishini xohlayman.

Suhbatga amakisi aralashdi.

– Hozir yest qilamiz-da. Cho'ntagidan telefonini olib, video chaqiruv qildi. Telefonda ovoz keldi.

– Assalomu alaykum, aka! Zo'rmisizlar?

– Vaalaykum assalom! Mana, o'g'ling bilan gaplash.

Jasurjon telefonga tikildi. Gapirmadi.

– Gapirsang-chi, o'g'lim! Nima kerak, senga nima jo'natay?

Jasurjonning bo'g'ziga yig'imi, alammi tiqildi.

– Siz, dadammisiz o'zi, yoki telefonmisiz? Menga “telefon dada” kerakmas.

U o'kirib yig'lab yubordi:

– Hammangiz o'tirikchisiz, o'tirikchilar...

Risolat JUMANAZAROVA,
Qamashi tumanidagi
95-maktabning ona tili va adabiyot
o'qituvchisi

Jonibekov Jasurbek Jonibekovichning 13.00.07 – Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha “Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda ta'lim xizmatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish(tibbiyot oliy ta'lim muassasalari misolida)” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024. Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 2-aprel kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: bdti@edu.uz

Yuldasheva Gulchexra Raximovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosliklari bo'yicha “Homiladorlikdan oldingi davrda COVID-19 o'tkazgan homilador ayollarining klinik va immunologik holati” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 30-mart kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 207 08 30; e-mail: immunology@academy.uz

Musayeva Umida Ruxilloyevnaning 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholash metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.

Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37;

e-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

Shamsiddinova Sitora Badriddinovnaning 10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tillari va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha “Gilg'amish” dostonida hayot va boqiylik konsepsiyasining badiiy-g'oyaviy talqini” mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani,

Amir Temur shohko'chasi, 20-uy.

Tel/faks: (71) 233-34-24;

veb-sayt: www.tsuos.uz; e-mail: info@tsuos.uz, Tdshu@exat.uz

Axmedova Matlyuba Olimxon qizining 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Inson papillomavirusi bilan kechuvchi servikal intraepitelial neoplaziyaning klinik-morfologik va molekulyar-genetik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-aprel kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-“a” uy.

Tel/faks: (71) 263-78-18; e-mail: info@uzaig.uz

Nigmatullina Ilmira Ildarovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Birlashtirilgan prenatal skrining dasturining samaradorligi va informativligini qiyosiy tahlil qilish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-aprel kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-“a” uy.

Tel/faks: (71) 263-78-18; e-mail: info@uzaig.uz



Dilsoʻz

QALAM

Qalamingni ayamay sindir,
U qalammas – choʻpdir, oʻtindir.
Oʻqimasa eti jimirlab,
Yod olmasa sheʻringni kimdir.

Qalam nima?
Yurakning dogʻi!
Bitiklaring – uning qorasi.
Unutmagil tebratgan chogʻing,
U – koʻmir va olmos orasi.

Unutmagil, qudrati behad,
“Boʻl” kalomi – yozgan ilk soʻzi.
Joning kabi ardoqlab tebrat,
Seni “yoʻq”dan “bor” qilar oʻzi.

SODIQ SOʻZ HAQIDA SOʻZ

Eshigimni chertadi kimdir,
Koʻzlarimdan qochadi uyqu.
Yarim tunda keldi negadir,
Xavotirda soʻrayman: “Kim u?”.

Atrof jimjit, oʻlik sukunat,
Javob bermas menga hech kishi.
Nega endi uygʻotdi shu payt,
Bu kim boʻldi, kimning tashvishi?

Girdobiga olar beomon,
Meni har xil oʻy-u fikrlar.
Bosib kelar goʻyo olomon,
Unutilgan ikir-chikirlar.

Charchatadi xayol jismimni,
Ilinadi koʻzim birpasda.
Koʻp oʻtmaydi aytib ismimni,
Yana kimdir chaqirar asta.

– Shumshuksan-a, deyman, naqadar,
Axir bundoq tanishtir oʻzing.
Deydi: – Kechir, menman – darbadar,
Daftaringga tushmagan soʻzing.

– Daydilarga yoʻq menda toqat,
Ketgin deyman, buzma uyquni.
Eshigimni yopib beshafqat,
Ostonamdan haydayman uni...

Kulmasinlar shoirlar mendan,
Soʻzdan olib qochsam oʻzimni.
Noshud boʻlib tursam-da zimdan,
Men izlayman sodiq soʻzimni.

Shoir boʻla olmas-ku har kim,
Sheʻr boʻlarmi istalgan kalom?
U soʻz yana keladi balki,
Balki endi qaytmas batamom.

Sheʻr sobitdir, soʻzlar oʻtkinchi,
Kechalari uygʻotar hanuz.
Qaysi biri bermasa tinchim,
Demak, oʻsha menga sodiq soʻz.

Soʻzlar koʻpdir, chiroyli, badiiy,
Mayli, daftarimni toʻldirsin.
Ketmas boʻlsa, qolsa abadiy,
Eshigimdan oʻsha soʻz kirsin.



BOBUR GʻAZALIGA MUXAMMAS

Oshiqqa muhabbat ishidek kor topilmas,
Chunki oning inkoriga inkor topilmas.
Koʻrdim qidirib, bir guli bexor topilmas,
Sendek menga bir yori jafakor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.

Lekin netayin, garchi bugun ancha narisen,
Sen qancha yiroqsen, shu qadar vasl sarisen.
Ham ishq-u havas, rohati dil bari-bari sen,
Bu shakl-u shamoyil bila xud hur-u parisen –
Kim, jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas.

Husnungi yozargʻa kishida soʻz-bayon yoʻq.
Yetmaydi qalam, dili siyohida poyon yoʻq.
Gar koʻrmak oʻlub, maʼshuqaga boqma qayon, yoʻq,
Agʻyor koʻz olida-yu ul yor ayon yoʻq,
Gʻam xori koʻngul ichra-yu gʻamxor topilmas.

Kim xorijda aziz boʻldi, xarob oʻz vatanida,
Ne tongki, xarob joni aziz jism-u tanida.
Tan ham ketadir bir kuni choʻbin samanida,
Ey gul, meni zor etmaki, husnunchamanida,
Koʻzni yumub-ochquncha bu gulzor topilmas.

Yoring seni zor etsa agar zorligʻ etgil,
Ashking suyigʻa botma-yu bedorligʻ etgil.
Ham dilni ber-u Komili dildorligʻ etgil,
Bobur, seni chun yor dedi – yorligʻ etgil,
Olamda kishiga yoʻq esa yor topilmas.

Xudoyberdi KOMILOV,
Urgut tumanidagi 97-maktabning ona tili va
adabiyot fani oʻqituvchisi



YURTIMDA BAHOR

Andijondan boshlanar tongning sharpasi,
Dillarni qitiqlar mayin shabboda.
Bahorning jarchisi – qushlar nagʻmasi,
Quvnoq qahqahasi uchar havoda.

Ana, adirlarda uygʻonar hayot,
Huzurbaxsh kenglikka choʻmilgan bu dam.
Qushlarning tilida bahoriy bayot,
Taʼriflashga ojiz men tutgan qalam.

Bahoriy shasht bilan huv irmoqlarda,
Beega jilgʻalar qaylarga shoshar?
Dimiqqan chumoli chiqib inidan,
Borliqdan lol boʻlib, koʻzin ishqalar.

Yalpizlar ifori urar dimoqqa,
Kuttirgan bahorning mayin yellari.
Quvonch-la boqaman bugun borliqqa,
Yangi koʻylak kiygan bola singari.

Novdalar koʻzidan chimmatin tortib,
Bahor shabnam bilan koʻzlarin yuvar.
Ana bolarilar xirgoyi qilib,
Bahor elchisidan boʻsalar olar.

Bahorning tuhfasi – yalpiz-u koʻkdan,
Momolar tugmoqda yana chuchvara.
Boʻyi yetgan qizlar oʻsma suvi-la,
Qoshini sugʻormoq bilan ovvora.

Bahor, sen kelasan takror va takror,
Dillarda uygʻotib shirin hissiyot.
Kelmadi! U yoshlik... kelmaskan takror,
Eslashning oʻzi ham men uchun rohat!

Tursunboy MADUMAROV,
Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan
xalq taʼlimi xodimi

Qoʻrgʻontepa tumani

QUTLUGʻ QADAMINI
QOʻYMOQDA NAVROʻZ

Sepini yoymoqda oʻlkamga bahor,
Tabiat koʻrkini qilmoqda koʻz-koʻz.
Erib bitmoqdadir togʻlardagi qor,
Qutlugʻ qadamini qoʻymoqda Navroʻz.

Dov-daraxt uygʻongan, parvozda qushlar,
Bahorni madh etar aytilgan har soʻz.
Sochiga jamalak taqmoqda qizlar,
Qutlugʻ qadamini qoʻymoqda Navroʻz.

Momolar undirgan bugʻdoyda sehr,
Bobolar duoda, boʻlsin der rizq-roʻz.
Bolalar shod-xurram, koʻzlarda mehr,
Qutlugʻ qadamini qoʻymoqda Navroʻz.

Bodomlar gullagan, boychechak ungan,
Varraklar samoda, tegmasin-a koʻz.
Bahor kayfiyati yuqar har kimga,
Qutlugʻ qadamini qoʻymoqda Navroʻz.



Bahor koʻkatlari tangadir darmon,
Ona yer mahsuli ismaloq, yalpiz.
Bir zum toʻxtamayin ishlar tegirmon,
Qutlugʻ qadamini qoʻymoqda Navroʻz.

Qadimdan merosdir Navroʻz aslida,
Navroʻzni madh etar azal chanqovuz.
Bayramlar juda koʻp bahor faslida,
Qutlugʻ qadamini qoʻymoqda Navroʻz.

Roʻzimurod BOLQIYEV,
Mirzachoʻl tumanidagi 10-maktabning
boshlangʻich sinf oʻqituvchisi

Maʼrifat

TAʼSIS ETUVCHILAR:

Oʻzbekiston maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi,
Oʻzbekiston oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oʻzbekiston taʼlim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-6080. Tiraji-5500.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qogʻoz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (55) 512-01-50



“Maʼrifat”dan
materiallarni koʻchirib bosish
tahririyat ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar
taqriz qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent koʻchasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Gazetaning saytiga oʻtish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:

Ⓣ – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

“Oʻzbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher
Navoiy koʻchasi, 30-uy.

